

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJA BERUVCHI DSc.03/10.12.2019.I.16.01 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

SULAYMANOV SAMANDARBOY ADHAMBEK O'G'LI

**TIJORAT BANKLARI LIKVIDLILIGINI TARTIBGA SOLISHNI
TAKOMILLASHTIRISH**

08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии по
экономическим наукам (PhD)**

**Content of the dissertation abstract of the Doctor of Philosophy (PhD) in
Economic Sciences**

Sulaymanov Samandarboy Adhambek o‘g‘li

Tijorat banklari likvidliligini tartibga solishni takomillashtirish. 3

Сулайманов Самандарбой Адхамбек ўғли

Совершенствование регулирования ликвидности коммерческих банков . . . 35

Sulaymanov Samandarboy Adhambek ugli

Improving the regulation of commercial banks' liquidity. 69

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works. 73

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJA BERUVCHI DSc.03/10.12.2019.I.16.01 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

SULAYMANOV SAMANDARBOY ADHAMBEK O'G'LI

**TIJORAT BANKLARI LIKVIDLILIGINI TARTIBGA SOLISHNI
TAKOMILLASHTIRISH**

08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon iqtisodiyotida moliyaviy tizim barqarorligini ta'minlashda, banklar o'rtasidagi muloqot samaradorligini kuchaytirishda hamda pul-kredit siyosati mexanizmlarining ta'sirchanligini oshirishda tijorat banklari likvidligini tartibga solishning ahamiyati oshib bormoqda. Likvidlikni maqbul darajada saqlab turish bank majburiyatlarini o'z vaqtida bajarilishi imkonini yaratib, moliyaviy vositachilik funksiyasining uzluksiz amalga oshirishini kafolatlash va makroiqtisodiy xatarlarni yumshatishga xizmat qilmoqda. Xususan, Xalqaro Valyuta Jamg'armasi tomonidan olib borilgan tahlillarga ko'ra, "likvidlikni samarali boshqarishning yetishmasligi 2008-yilgi moliyaviy inqirozning chuqurlashishiga olib kelgan, shu sababli Bazal III standartlari doirasida "Liquidity Coverage Ratio (LCR)" va "Net Stable Funding Ratio (NSFR)" singari indikatorlar joriy etilib, uzoq va qisqa muddatli likvidlikni ta'minlash bo'yicha xalqaro mezonlar shakllantirilgan"¹. Bundan ko'rinadiki, yuqori darajada rivojlangan qimmatli qog'ozlar bozori, pul bozori, shuningdek, banklar o'rtasidagi kredit va depozit operatsiyalarining faol ishlashi zarurligi muhim ahamiyatga ega. Aynan shu omillar, ya'ni moliya bozorlarining chuqur va likvid bo'lishi, tijorat banklari likvidligini tartibga solish jarayonida muhim ahamiyat kasb etadi.

Jahon bank amaliyotida tijorat banklari likvidligini tartibga solish bo'yicha qator talablar, me'yorlar va tamoyillarni takomillashtirishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. Bu tadqiqotlarda tijorat banklari likvidligi bilan bog'liq riskni kamaytirish, likvidlikni tartibga solish va ta'minlash, tijorat banklari likvidligini tartibga solishda kutilmaganda talablarni bajarish, yuqori likvidli va barqaror mablag'lar bilan ta'minlash, banklarning riskli aktivlari va muddatli mablag'lari o'rtasidagi muvozanatni ta'minlash, banklarning likvid mablag'larga talabini zudlik bilan qondirish, likvidlikni tartibga solishda bozor instrumentlaridan foydalanish masalalari ilmiy tadqiqot ishlarining asosiy yo'nalishlari hisoblanadi.

O'zbekistonda tijorat banklari likvidligini tartibga solish borasida makroiqtisodiy siyosatni kuchaytirish, bank tizimining barqarorligini ta'minlash va moliyaviy vositachilik samaradorligini oshirishga qaratilgan bir qator institutsional va regulyativ chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Xususan, Markaziy bank tomonidan qabul qilingan "Likvidlikni boshqarish va nazorat qilishning me'yoriy ko'rsatmalari" asosida hamma tijorat banklari uchun majburiy ravishda "tezkor likvidlik koeffitsiyenti", "har kunlik minimal kassa zaxirasi" va "uzoq muddatli likvidlik indeksi" kabi ko'rsatkichlarni hisoblab borish talab qilinmoqda. Shu bilan birga, banklar o'rtasida likvidlikni qayta taqsimlashni rag'batlantirish maqsadida Markaziy bankning pul bozori instrumentlari (repo, svop va notiqimotlangan

¹ International Monetary Fund, Liquidity Risk Management and Supervision, IMF Working Paper No. 13/3, 2013. URL: <https://www.imf.org/en/Publications/WP/Issues/2016/12/31/Liquidity-Risk-Management-and-Supervision-40143>

depozitlar) faol joriy etilmoqda. Bunday choralar banklarning likvidlik xavflariga nisbatan barqarorligini ta'minlash va kredit faoliyatini izchil davom ettirishda muhim asos bo'lmoqda². Tijorat banklari moliyaviy barqarorligi, aholi va real sektorning kreditga talabini qondirish hamda mijozlar oldidagi majburiyatlarni o'z vaqtida bajarilishi amalga oshirilayotgan islohotlar, jumladan, 2025-yil 14-martda kuchga kirgan O'zbekiston Respublikasi Markaziy bank boshqaruvining "O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan tijorat banklarining likvidligini favqulodda qo'llab-quvvatlash uchun kreditlar ajratish tartibi to'g'risidagi" nizomda bir qator vazifalar belgilab qo'yilgan. Biroq bank balansida depozitlarning asosiy ulushini muddatsiz depozitlar tashkil etadi, aktivlar tarkibida hukumatning va Markaziy bankning yuqori likvidli aktivlari deyarli shakllanmagan, bankning depozit, kredit, foiz siyosatlarining amalda samarali emasligini ilmiy jihatdan asoslab berish va ilmiy tavsiyalar ishlab chiqish respublika bank tizimi uchun dolzarb masala hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli "2022-2026-yillarda Yangi O'zbekistonni rivojlantirish strategiyasi to'g'risida"gi, 2020-yil 5-oktabrdagi PF-6079-sonli "“Raqamli O'zbekiston – 2030” strategiyasini tasdiqlash va amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2020-yil 12-maydagi PF-5992-sonli "2020-2025 yillarda O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida"gi, 2019-yil 18-noyabrdagi PF-5877-sonli "Inflyatsiyani nishonga olish rejimiga bosqichma-bosqich o'tish orqali pul-kredit siyosatini takomillashtirish to'g'risida"gi farmonlari, 2017-yil 12-sentabrdagi PQ-3270-sonli "O'zbekiston Respublikasining bank tizimini yanada rivojlantirish va mustahkamlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori hamda sohaga oid boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublikada fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. "Demokratik va huquqiy jamiyatni ma'naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Tijorat banklarining likvidligini tartibga solish masalalari ilmiy-nazariy, amaliy va metodologik jihatdan rivojlangan mamlakatlar olimlari tomonidan keng o'rganilgan. Xususan, bu boradagi yirik tadqiqotlar va nazariy ishlanmalar yetakchi iqtisodchilar J.Sinki, F.Mishkin, I.Lavrushin, V.Usoskin, E.Jukov, E.Jarkovskaya, N.Valenseva, A.Simanovskiy, R.Olxova, A.Tavsiev va boshqalarning ilmiy ishlarida atroflicha o'rganilgan va tahlil qilingan³.

² O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2023-yil I yarim yillik hisoboti, 2023. URL: https://cbu.uz/oz/press_center/publications/444614/

³ Синки Дж. Финансовый менеджмент в коммерческом банке и в индустрии финансовых услуг. Пер. с англ. - М.: Альпина Паблишер, 2017. – 1018с.; Мишкин Ф.С. Экономическая теория денег, банковского дела и финансовых рынков. Пер. с англ. – М.: ООО «И.Д. Вильямс», 2013. – С. 880с.; Ларионова И.В. Ликвидность

O'zbekistonlik iqtisodchi olimlardan T.Qoraliyev, Sh.Abdullayeva, N.X.Jumayev, A.U.Burxonov, A.Omonov, O.Sattarov, M.Kurbonbekova, B.Izbosarov va boshqalar pul-kredit siyosati, kredit mexanizmi bank tizimining barqarorligi, xalqaro valyuta-kredit munosabatlari, Markaziy bank valyuta siyosati hamda tijorat banklar likvidliligini tartibga solishni takomillashtirish yuzasidan ilmiy tadqiqotlar olib borganlar⁴. Lekin alohida ta'kidlash lozimki, tijorat banklari likvidliligini tartibga solishni takomillashtirishning amaliy ham metodologik tomonlari o'zbekistonlik iqtisodchi olimlar tomonidan alohida tadqiqot obyekti sifatida o'rganilmagan.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasi ilmiy tadqiqot ishlari rejasi bilan bog'liqligi. Dissertatsiya ishi Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi tijorat banklari likvidliligini tartibga solishni takomillashtirishga qaratilgan ilmiy takliflar va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

bank likvidliligini tartibga solishning ilmiy-nazariy yondashuvlarini asoslash;
tijorat banklari likvidliligini tartibga solishning usullarini yoritib berish;
bank likvidliligini tartibga solishda me'yoriy-huquqiy asoslarni tizimlashtirish;
bank kredit faoliyati va foiz stavkalarining bank likvidliligiga ta'sirini tahlil qilish;

tijorat banklari likvidliligini tartibga solishning amaldagi holati tahlilini o'tkazish;

tijorat banklari likvidlilik darajasiga ta'sir qiluvchi omillarning ekonometrik tahlili asosida ilmiy xulosalar keltirib chiqarish;

bank likvidliligini tartibga solishning xorij tajribasini tadqiq etish;

коммерческого банка. Банковское дело: Учебник. 12-е изд., перераб. и доп. (Глава 7). Под ред. О.И.Лаврушина. М.: КНОРУС, 2016. □800 с.; Банковское дело: учебник. Под ред. О.И. Лаврушина. – М.: КНОРУС, 2016. – 800 с.; Усоскин В.М. Современный коммерческий банк: управление и операции. – М.: ЛЕНАНД, 2019. – 328 с.; Жуков, Е.Ф., Эриашвили, Н.Д. Банковское дело: учебник. 4-е изд. – М.: ЮНИТИ, 2011. - 687с.; Жарковская Е.П. Финансовый анализ деятельности коммерческого банка. Учебник. – М.: ОмегаЛ, 2010. – 325 с.; Валенцева Н.И., Ларионова И.В. Оценка финансовой устойчивости и перспектив деятельности кредитных организаций. Учебное пособие. – М.: КНОРУС, 2018. – 242 с.; Симановский А.Ю.Базельские принципы эффективного банковского надзора и их реализация в России. // Деньги и кредит. - 2001.- №3. – С. 19-24.; Ольхова, Р.Г. Банковское дело: управление в современном банке. – М.: КНОРУС, 2011. – 298с.

⁴ Koraliev, T., & Ortiqov, U. Теоретические и практические основы управления банковскими ресурсами. Монография. – Ташкент, 2009; Azizov, U., Koraliev, T. и др. Основы банковского дела. – Ташкент: Издательство “Iqtisod-moliya”, 2016.; Jumayev, N.X. (2020). Структура кредитных вложений в банках Узбекистана и риски их управления. Инновации в экономике, №3.; Жумаев, Н.Х. Текущее состояние глобальных инвестиций в мировую экономику. // Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar, №4. – Ташкент, 2021.; Burkhonov, A.U. Методика анализа финансовой устойчивости промышленных предприятий.; Sattarov, O.V. (2018). Совершенствование методологии обеспечения стабильности банковской системы Узбекистана. Автореферат диссертации на соискание степени доктора экономических наук. – Ташкент.; Jumayev, N.X. Развитие методологии регулирования валютных отношений в Узбекистане. Монография. – Ташкент: Фан ва технология, 2007.; Sattarov O.V. и соавт. Инфляция: проблемы и пути их решения. Монография. – Ташкент, 2014. Избосаров Б.Б. Ракамли иқтисодиётда тижорат банклари ликвидлигини тартибга солиш. Иқтисодиёт фанлари (PhD) бўйича фалсафа доктори илмий даражасини олиш учун бажарилган диссертация автореферати. – Т.: 2019, ТМИ.

tijorat banklari likvidliligini tartibga solishda yuzaga keluvchi muammolarni o‘rganish va ularning yechimlarini ishlab chiqish;

bank likvidliligini tartibga solishni takomillashtirish istiqbollarini belgilash.

Tadqiqotning obyekti O‘zbekiston Respublikasi tijorat banklari likvidliligini tartibga solish amaliyoti hisoblanadi.

Tadqiqotning predmetini tijorat banklari likvidliligini tartibga solishni takomillashtirish jarayonida yuzaga keluvchi iqtisodiy munosabatlar tashkil qiladi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada likvidlikni baholash, barqaror moliyaviy resurslarni tahlil qilish, moliyaviy xavfni baholash va likvidlik riskini boshqarish usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

tijorat banklari tomonidan yevroobligatsiyalar emissiyasini joriy etish orqali tashqi moliyaviy resurslarni jalb qilish mexanizmini shakllantirish va likvidlilik uzluksizligini ta’minlashni tartibga soluvchi moliyaviy model asosida likvid aktivlar ulushini kamida 18-20 % darajasida saqlab turish hamda normativ likvidlilik ko‘rsatkichlarini 1,2 barobarga yaxshilash taklifi ishlab chiqilgan;

tijorat banklari resurslarining asosiy qismini qisqa muddatli daromad keltiruvchi aktivlarga yo‘naltirish, investitsion loyihalarni moliyalashtirishda uzoq muddatga jalb qilingan depozitlar va xorijiy kredit liniyalarning mablag‘lari hisobidan amalga oshirish hamda bir yildan ortiq muddatli majburiyatlar ulushini 70 foizgacha yetkazish orqali likvidlikni ta’minlash asoslangan;

bank ish kuni davomida real vaqt rejimida pul oqimlari monitoringi, normativ likvidlilik darajasiga yaqinlashish signali va avtomatlashgan korrekativ harakatlar algoritmini o‘z ichiga olgan likvidlilikni boshqarish tartibini joriy etish orqali tezkor likvidlik koeffitsiyentini 1,0 dan pastga tushish xavfini 70% gacha kamaytirish imkoni asoslangan;

tijorat banklarining likvidliligini tartibga solishga ta’sir qiluvchi omillarning o‘zgarma effekt modeli orqali “Agrobank” aksiyadorlik tijorat bankining likvidlik aktivlari qiymati o‘shining 2029-yilga qadar prognoz ko‘rsatkichlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijasi quyidagilardan iborat:

tijorat banklari yevroobligatsiyalarni emissiya qilish orqali likvidlilik uzluksizligini ta’minlash taklifi asosida Agrobank ATBning dastlabki yevrobondlari London va Vena fond birjalarida emissiya qilingan;

tijorat banklari likvidliligini ta’minlash maqsadida bankning aktiv va passivlarini boshqarish bo‘yicha Agrobank ATB xorijiy konsalting kompaniyasi hamkorligida ALM (Asset Liability Management) tizimi amaliyotga joriy qilingan;

tijorat banklari filiallarida likvidlilik ko‘rsatkichlari va me‘yorlarini kunlik bajarib borishi bo‘yicha talablarni nazorat qilish orqali ularning likvidliligini mustahkamlash taklifi asoslangan;

tijorat banklarining likvidliligini tartibga solishga ta'sir qiluvchi omillarni o'zgaras effekt modeli orqali aktivlarning o'sishini istiqbol davrida oshirish bo'yicha taklif asoslangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqotda qo'llanilgan usul va yondashuvlarning ilmiy asoslanganligi, ularning belgilangan ilmiy vazifalarga muvofiq bajarilganligi, keltirilgan ma'lumotlarning rasmiy va nufuzli manbalarga tayanilganligi, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki, Milliy statistika qo'mitasi, tijorat banklari likvidliligini tartibga solishga oid normativ-huquqiy hujjatlar, shuningdek, mahalliy va xalqaro iqtisodchi olimlar tomonidan olib borilgan ilmiy tadqiqotlar va ekspert xulosalari tadqiqot natijalarining ishonchliligini namoyon etadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati uni olib borish jarayonida erishilgan ilmiy natijalar, xulosalar va amaliy tavsiyalardan tijorat banklarining likvidligini tartibga solish, ushbu jarayonlarning metodologik asoslarini takomillashtirish, shuningdek, sohadagi nazariy va amaliy bilimlarni chuqurlashtirishga ehtiyojlarni qondirishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati unda ishlab chiqilgan amaliy xulosa va takliflar asosida O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki hamda tijorat banklarining amaliy faoliyatini yaxshilash, bank tizimini rivojlantirish bo'yicha tegishli chora-tadbirlarni ishlab chiqish, iqtisodiy yo'nalishdagi oliy o'quv yurtlarida "Makroiqtisodiyot", "Pul va banklar", "Bank ishi" fanlarini o'qitishda o'quv-metodik qo'llanma sifatida foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Tijorat banklari likvidliligini tartibga solishni takomillashtirish bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

tijorat banklari tomonidan yevroobligatsiyalar emissiyasini joriy etish orqali tashqi moliyaviy resurslarni jalb qilish mexanizmini shakllantirish va likvidlilik uzluksizligini ta'minlashni tartibga soluvchi moliyaviy model asosida likvid aktivlar ulushini kamida 18-20 % darajasida saqlab turish hamda normativ likvidlilik ko'rsatkichlarini 1,2 barobarga yaxshilash taklifidan "Agrobank" ATBning faoliyatida foydalanilgan ("Agrobank" ATBning 2025-yil 20-avgustdagi 03/02-04/318-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur taklifni amaliyotga joriy etish natijasida, 2024-yilda 400 mln. AQSh dollari va 700 mlrd. milliy valyutada Citi, Societe Generale, Standard Chartered, MUFG, ICBC Standard Bank va Mashreq singari yirik banklar hamkorligida Agrobankning dastlabki yevrobondlari London va Vena fond birjalarida emissiya qilinib, buning natijasida bankning yuqori likvidli aktivlari ulushi jami aktivlar tarkibida 2025-yil 1-yanvar holatiga o'tgan yilga nisbatan 43,22 foizga oshgan;

tijorat banklari resurslarining asosiy qismini qisqa muddatli daromad keltiruvchi aktivlarga yo'naltirish, investitsion loyihalarni moliyalashtirishda uzoq muddatga jalb qilingan depozitlar va xorijiy kredit liniyalarning mablag'lari hisobidan amalga oshirish hamda bir yildan ortiq muddatli majburiyatlar ulushini 70

foizgacha yetkazish orqali likvidlikni ta'minlash taklifidan "Agrobank" ATBning faoliyatida foydalanilgan ("Agrobank" ATBning 2025-yil 20-avgustdagi 03/02-04/318-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur taklifni amaliyotga joriy etish natijasida bankning 2025-yil 1-yanvar holatiga qisqa muddatga ajratilgan kreditlar qoldig'i 14,5 trln. so'mni tashkil etib, o'tgan yilga (10,5 trln. so'm) nisbatan 4,0 trln. so'mga, bankning bir yildan ortiq muddatli majburiyatlar ulushi 2025-yil 1-yanvar holatiga o'tgan yilning shu davriga nisbatan 9,3 trln. so'm yoki 53,41 foizga ortgan;

bank ish kuni davomida real vaqt rejimida pul oqimlari monitoringi, normativ likvidlilik darajasiga yaqinlashish signali va avtomatlashgan korrekativ harakatlar algoritmini o'z ichiga olgan likvidlilikni boshqarish tartibini joriy etish orqali tezkor likvidlik koeffitsiyentini 1,0 dan pastga tushish xavfini 70 % gacha kamaytirish taklifidan "Agrobank" ATBning faoliyatida foydalanilgan ("Agrobank" ATBning 2025-yil 20-avgustdagi 03/02-04/318-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur taklifni amaliyotga joriy etish natijasida banklarda kun davomida yuzaga keluvchi likvidlik tafovutlarini tezkor aniqlash, ularni samarali tarzda boshqarish va moliyaviy barqarorlikni ta'minlash imkoni yaratilgan;

tijorat banklarining likvidlilikini tartibga solishga ta'sir qiluvchi omillarning o'zgarma effekt modeli orqali "Agrobank" aksiyadorlik tijorat bankining likvidlik aktivlari qiymati o'sishining 2029-yilga qadar ishlab chiqilgan prognoz ko'rsatkichlaridan "Agrobank" ATBning faoliyatida foydalanilgan ("Agrobank" ATB ning 2025-yil 20-avgustdagi 03/02-04/318-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur taklif natijasida "Agrobank" ATBning likvidli aktivlarini samaradorligiga ta'sir qiluvchi omillar aniqlangan, shuningdek, aktivlar hajmiga ta'sir qiluvchi omillarni baholash imkoni yaratilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 6 ta, shuningdek, ilmiy-amaliy anjumanda, jumladan 3 ta respublika va 3 ta xalqaro miqyosdagi ilmiy-amaliy konferensiyalarda muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 9 ta ilmiy ish, jumaladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi (OAK) tomonidan tan olingan ilmiy jurnallarda 2 ta ilmiy maqola, nufuzli xorijiy jurnallarning Scopus bazasida indekslangan (Quartile 1) 1 ta ilmiy maqola chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish qismi, 3 ta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat bo'lib, jami 168 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish** qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, muammoning o'rganilganlik darajasi, tadqiqotning maqsadi, vazifalari hamda obyekt va predmeti, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari, tadqiqot natijalarining ishonchliligi va joriy etilishi, dissertatsiya tuzilishi va hajmi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning “**Tijorat banklari likvidliligini tartibga solish borasidagi ilmiy-nazariy qarashlar va me’yoriy-huquqiy asoslar**” deb nomlangan birinchi bobida tijorat banklari likvidliligini tartibga solish borasidagi ilmiy nazariy yondashuvlar, me’yoriy huquqiy asoslar va likvidlilikni tartibga solish chora-tadbirlari bo’yicha amalga oshirilayotgan ishlar o’rganilgan.

Bugungi kunda tijorat banklari likvidliligini tartibga solish nihoyatda muhim. Shuningdek, “tijorat banklari likvidligi” atamasi moddiy aktivlarni naqd pulga aylantirishning osonligi va ularni qanchalik tez konvertatsiya qilish mumkinligini anglatadi. O‘zbekiston mustaqillikka erishgandan so‘ng likvidlilik mavzusida bir qator tadqiqotlar amalga oshirilgan. Iqtisodiyot konsepsiyasining loyihasi ishlab chiqilgan, shuningdek, tijorat banklari likvidliligini tartibga solish zarurligi va ilmiy-nazariy fikrlar atroflicha tahlil qilinib, ilmiy xulosalar shakllantirilgan.

Iqtisodiy adabiyotlarda iqtisodchilar bank likvidligiga, odatda, deyarli bir xil ta’rif beradilar. Faqat likvidlilik tushunchasiga turlicha yondashuvlar mavjud. Jumladan J. Sinkey tomonidan bank likvidliligiga “bank potentsial likvid aktivlarni naqd pulga tez aylantira olish qobiliyatiga ega bo‘lishi va zarurat tug‘ilganda tezkor moliyaviy bozor instrumentlari orqali likvidlilikni jalb qila olish qobiliyati”⁵ shaklida ta’rif berilgan.

Iqtisodchi V.Ivanov bank likvidliligiga “o‘z vaqtida va eng kam xarajat bilan bankning o‘z majburiyatlarini va mijozlarning kredit bo‘yicha talablarini bajarish qobiliyatidir” shaklida ta’rif beradi⁶.

F.Mishkin bank likvidliligiga “bankning qisqa muddatli majburiyatlarini uzluksiz va to‘liq bajarish qobiliyati va ushbu qobiliyat izdan chiqsa, bank yugurib ketish (bank run) singari xatarlar kelib chiqadi. Shu bois, F. Mishkin banklar uchun qat’iy likvidlik me’yorlari va zarur holatda markaziy bank likvidlik yordamini muhim”⁷ deya ta’rif beradi.

Bank likvidligining turli ta’riflari banklar tomonidan taqdim etiladigan xizmatlar keng doirasini ko‘rsatadi. Bank likvidligi bankning zarurat tug‘ilganda va yetarli miqdorda likvid aktivlarni olish qobiliyati sifatida ta’riflanishi mumkin, bu esa unga darhol va kelajakdagi moliyaviy majburiyatlarni qondirish va iste’molchi kredit ehtiyojlarini samarali ravishda hal qilish imkonini beradi.

Tadqiqotchining fikricha, bank likvidligi deganda bank tomonidan o‘z joriy va kelajakdagi majburiyat va to‘lovlarini hamda kredit bo‘yicha mijozlar talablarini o‘z vaqtida bajarish maqsadida kerakli vaqtda va miqdorda, hech qanday zarar ko‘rmay, likvid mablag‘larni jalb qila olish qobiliyatlarini yig‘indisidir.

Shuningdek, mamlakatimiz iqtisodchi olimlari, xususan, prof. T.Qoraliyev, Sh.Abdullayeva, N.X.Jumayev, A.U.Burxonov, A.Omonov, O.Sattarov, M.Kurbonbekova, B.Izbosarov va boshqa iqtisodchi olimlar ham tijorat banklari

⁵ Sinki J. Financial management in a commercial bank and financial services. - M.: Alpina Publishing House, 2017. 493 p.

⁶ Иванов В.В., [и др.]. Банки и банковские операции: учебник и практикум для академического бакалавриата. – М.: Юрайт, 2021. – 458 с.

⁷ Mishkin F. S. The economics of money, banking, and financial markets. – Pearson education, 2007.

likvidliligini tartibga solish bo'yicha o'z munosabatlari va nuqtayi nazarlarini bildirganlar. Xususan, o'zbekistonlik iqtisodchi olim T. Qoraliyev, pul-kredit siyosati va bank tizimi barqarorligi yo'nalishida tadqiqotlar olib borgan.

T. Qoraliyev o'z tadqiqotlarida Markaziy bankning pul-kredit siyosati banklar likvidligiga qanday ta'sir ko'rsatishi masalasini yoritgan. Xususan, u iqtisodiy o'sish sharoitida pul massasini tartibga solish, inflyatsion targetlash rejimi singari omillar tijorat banklari likvid aktivlari hajmi va zaxira talablariga rioya qilish darajasini belgilashini tahlil qilgan. Qoraliyevning ilmiy yondashuviga ko'ra, makroiqtisodiy siyosat parametrlarini optimal darajada saqlab turish banklar likvidligini barqaror saqlashga xizmat qiladi, deya ta'kidlaydi. Masalan, Sh.Abdullayeva: "Likvidlilik atamasini sotish, aktivlarni pul mablag'lariga aylantirishning amalga oshirilishini, ya'ni bankning Markaziy bank yoki vakil banklardagi naqd pul mablag'laridan oqilona foydalanish, likvid aktivlarini sotish imkoniyati va hokazolarni anglatadi", deya ta'kidlaydi.

Professor N.X. Jumayev bank likvidliligiga "bank tizimi barqarorligini ta'minlash uchun kreditlash jarayonini tartibga solish, valyuta siyosatining tijorat banklari likvidliligiga ta'sirini nazorat qilish bank tizimi barqarorligini oshiradi. Shuningdek, milliy valyuta kursining beqarorligi banklarning likvidlik pozitsiyasiga bosim o'tkazishi mumkin", deya ta'kidlaydi.

Tadqiqotlar va o'rganishlar natijasi ko'rsatadiki, har bir mamlakatda bank tizimi likvidliligini tartibga solish uning tashkiliy-huquqiy asosini shakllantirish va ularni doimiy ravishda takomillashtirib borish zarurligini taqozo etadi. Bu borada mamlakatimizda qator ishlar amalga oshirildi. Xususan, tijorat banklari likvidliligini tartibga solishning tashkiliy-huquqiy bazasiga oid tegishli hujjatlar mavjudlari zamon talabidan kelib chiqib qayta qabul qilinmoqda, markaziy bank tomonidan tijorat banklari likvidliligini tartibga solishda bankning ichki siyosatidan kelib chiqib, likvidlilikni tartibga solish maqsadida yevrobondlar chiqarish likvidlilik siyosatini olib borishning xorij tajribalaridan hisoblanadi. Shunga qaramay, bu borada amalga oshiriladigan ishlar juda ko'p bo'lib, rivojlanayotgan va rivojlangan davlatlar siyosatini chuqur o'rgangan holda ularni yagona tizimga keltirish orqali mahalliy bank tizimini rivojlantirish lozim.

Bank tomonidan, o'z majburiyatlarini o'z vaqtida, to'liq hajmda va moliyaviy yo'qotishlarsiz bajarilishi likvidlikka ta'sir ko'rsatuvchi omillarni doimiy nazorat qilib borishni taqozo etadi. Likvidlikni samarali boshqarish bank menejerlari tomonidan likvidlik o'zgaruvchanligiga ta'sir qiluvchi asosiy omillarni aniqlash va chuqur anglab yetishni talab qiluvchi jarayondir. Bunday omillarning aniqlanishi bank rahbariyatiga faoliyatda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan salbiy tendensiyalarni oldindan prognoz qilish va ular sodir bo'lishidan avval profilaktik choralar ko'rish imkonini beradi.


Bank likvidligini makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar uchun yaratadigan imkoniyatlari⁸

Bank faoliyatini rivojlantirish maqsadida balans shaklini istalgan tarzda o‘zgartira olish, ya’ni bozor konyukturasidagi o‘zgarishlarga moslashuvchanlik imkoniyati kengayishiga (elastiklik ta’siri)	Kutilmaganda yuzaga keluvchi bank operatsiyalari bo‘yicha zararlardan himoyalanihga (xatarlarni kamaytiruvchi ta’sir) sharoit yaratadi
Iqtisodiy subyektlarning bank tizimiga ishonchi ortishiga (psixologik ta’sir)	Iqtisodiy tizimda to‘lovlarning o‘z vaqtida amalga oshirilishiga (funktsional ta’sir)
Iqtisodiyotda kredit faoliyati kengayishiga (daromad ta’siri)	Qilingan miqdorda mablag‘lar jalb qila olish imkoniyatining kengayishiga (xarajat ta’siri)

Bank likvidligiga ta’sir qiluvchi omillarni tahlil qilish va ularning o‘ziga xos xususiyatlarini batafsil o‘rganish bankning “og‘riq” nuqtalari va mavjud muammolar yechimlarini topish, ular yuzaga kelishining oldini olish va o‘z vaqtida bartaraf etishga amaliy yordam beradi.

Markaziy bank tomonidan favqulodda likvidlik yordami taqdim etilishi. Umumiy resurslar jamg‘armasi usuliga ko‘ra, bankda mavjud barcha moliyaviy resurslar yagona jamg‘armada birlashtiriladi. Keyin bu resurslar bankning aktivlar rejasi va ustuvor operatsion yo‘nalishlariga muvofiq taqsimlanadi (1-rasm).

Alohida olingan operatsiya turlari bo‘yicha o‘rnatilgan likvidlilik va daromadlilik o‘rtasidagi nisbatdan tashqari, maxsus cheklovlar o‘rnatilmaydi. Bunday fondan bankning istalgan biznes bo‘linmasi operatsiyalarni moliyalashtirish manbayi sifatida foydalanishi mumkin.




1-rasm. Mablag‘larning umumiy fondi usuli yordamida bank likvidligini boshqarish⁹

⁸ www.natlib.uz ma'lumotlar asosida muallif tomonidan tayyorlangan.

⁹ Muallif tomonidan shakllantirilgan.

“Mablag‘larning umumiy fondi” usulining afzalligi quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

- usulni amalga oshirishning metodologik soddaligi, ya’ni mablag‘larni jalb qilish va joylashtirishning qo‘shimcha shartlari mavjud emasligi;
- boshqaruv qarorlarini qabul qilish tezkorligi (oraliq boshqaruv masofalari mavjud emasligi);
- daromad keltirmaydigan aktivlarning ko‘payish xavfi yo‘qligi, ya’ni bank ixtiyoridagi mablag‘lar bank xizmatlari bozorining biror-bir segmentida talab yuzuga kelishi bilan darhol joylashtirilishi mumkinligi.



2-rasm. Mablag‘lar konversiyasi usuli yordamida likvidlilikni boshqarish¹⁰

Ammo “mablag‘larning umumiy fondi” usulida tijorat banklari tomonidan jalb qilingan mablag‘lar va ularni joylashtirish muddatlarining mos kelmasligi natijasida bankda joriy likvidlilikning ta’minlanmaslik xavfi darajasi yuqori bo‘ladi.

Bank likvidlilikini boshqarishning ikkinchi usuli sifatida “mablag‘lar konversiyasi” usulini taklif etish mumkin. Bu usulda tijorat banklari tomonidan moliyaviy mablag‘larni jalb qilish hamda ularni joylashtirish muddatlarini qat’iy muvofiqlashtirilishni nazarda tutadi (2-rasm). Shuning uchun banklar ikkita asosiy, ya’ni uzoq muddatli (1 yildan ortiq bo‘lgan muddat) va qisqa muddatli (1 yilgacha bo‘lgan muddat) operatsiyalari fondini tashkil qiladi.


2024-yil 7-fevralda qabul qilingan “Tijorat banklari likvidlilikini boshqarishga qo‘yiladigan talablar to‘g‘risidagi nizomga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish haqida”gi Markaziy bank boshqaruvi qarori banklar likvidlilikini tartibga solishda asos sifatida xizmat qiladi.

Dissertatsiya ishining “**Tijorat banklari likvidlilikini tartibga solishning amaldagi holati**” deb nomlangan bobida tijorat banklarining kredit siyosati va foiz stavkalarining tijorat banklari likvidlilikiga bevosita ta’siri o‘rganilgan. Xususan,

¹⁰ Muallif tomonidan shakllantirilgan.

qayta moliyalashtirish stavkasining o'zgarishi, majburiy zaxiralar me'yorlari va ochiq bozor operatsiyalari orqali pul massasiga ta'sir etish orqali banklar tomonidan ajratilayotgan kredit hajmi, kreditlar bo'yicha foiz stavkalari va likvidlik darajasini belgilovchi muhim omillardan biri hisoblanadi.

Amaliyot natijalariga ko'ra, likvidlilik siyosatining keskin yoki beqaror qo'llanilishi banklar faoliyatida noaniqliklar keltirib chiqarib, ularning kreditlash imkoniyatlarini cheklab qo'yishi mumkin. Bu holat, o'z navbatida, iqtisodiyotda investitsion faollikning pasayishi va bank tizimi ishonchliligining kamayishiga olib keladi. Shu sababli, tijorat banklari likvidligini ta'minlash bilan bir qatorda, kredit resurslarining iqtisodiyotga yo'naltirilishini muvozanatli tarzda tartibga solishi zarur.



3-rasm. Markaziy bank tomonidan muomalaga chiqarilib, tijorat banklari orasida joylashtirilgan obligatsiyalar¹¹

Shuningdek, tijorat banklari likvidliligini tartibga solish maqsadida bank tizimi likvidliligida yuzaga kelgan profitsitni samarali tartibga solish, banklarning daromad keltirmaydigan aktivlarini daromad keltiradigan muqobil instrumentlar bilan almashtirish va shu orqali boshqa aktiv operatsiyalarga (xususan, kreditlarga) narx bosimini pasaytirish maqsadida Markaziy bank obligatsiyalari muomalaga chiqarila boshlagan. Xususan, 2023-yil va 2024-yilning sentabr xolatiga Markaziy bankning jami 36,5 trln. so'mlik obligatsiyalari muomalaga chiqarilib, tijorat banklari o'rtasida joylashtirilgan

Tadqiqotchining fikricha, tijorat banklari likvidligi ta'minlash natijasida iqtisodiy barqarorlik, inflatsiyani nazorat qilish, milliy valyutaning barqarorligini ta'minlash va iqtisodiy o'sishni qo'llab-quvvatlash imkonini yaratadi.

Milliy valyutaning barqarorligini saqlash monetar siyosatning asosiy ustuvorliklaridan biridir. Valyuta kursining erkinlashuvi jarayonida valyuta bozorini tartibga solish strategik ahamiyatga ega. Milliy valyutaning almashuv kursini tartibga solish orqali eksport va import operatsiyalarining barqarorligi ta'minlanadi.

¹¹ Muallif tomonidan shakllantirildi.

Markaziy bank iqtisodiyotda pul massasining o‘shishini nazorat qiladi (pul agregatlarini boshqarish). Pul taklifi haddan tashqari oshishining oldini olish uchun sterilizatsiya operatsiyalari amalga oshiriladi. Pul bozorida likvidlikni tartibga solish orqali moliyaviy barqarorlik ta’minlanadi.

Elektron to‘lov tizimlari va raqamli valyutalar bo‘yicha ishlar olib borilmoqda. Raqamlashtirish orqali tijorat banklari likvidligining samaradorligi oshirilmoqda, bu esa iqtisodiy o‘shishga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Aholi kreditlariga talab oshishi fonida, so‘nggi yillarda bank tizimida omonatlar hajmi ham sezilarli o‘ydi. Aholi sektorida depozitlar va kreditlar o‘rtasidagi nisbat 2019-yildagi 62 foizdan 2023-yilga kelib, 53 foizgacha pasaydi, biroq bu ko‘rsatkich joriy yil boshidan boshlab tiklana boshladi.

Kreditlashning barqarorlashuvi va aholining jamg‘arish faolligi saqlanib qolayotgan sharoitda, mazkur nisbat 2025-yil ohiriga kelib 59 foizga, o‘rta muddatli istiqbolda esa 71 foizgacha oshishi prognoz qilingan. Mazkur ko‘rsatkich aholining qarzdorlik darajasini baholovchi muqobil indikator sifatida o‘rganiladi va uning o‘shishi aholining nisbatan sog‘lom moliyaviy holatga ega ekanligidan dalolat beradi. Inflyatsiya darajasi pasayishi va valyuta kursi barqarorlashuvi sharoitida, milliy valyutadagi (so‘m) depozitlar bo‘yicha yuqori real foiz stavkalari bank tizimiga barqaror jamg‘armalarni jalb etishning asosiy omillaridan biri bo‘lib qolmoqda.

2-jadval

Tijorat banklari kreditlash darajasi va likvidlik holati o‘rtasidagi muvofiqlik (YAIMga nisbatan ko‘rsatkichlar asosida), foizda¹²

Ajratilgan kreditlar nomi	2019-y.	2020-y.	2021-y.	2022-y.	2023-y.	2024-y.	2025-y.*	2026-y.
Aholi kreditlari	7	8	8	10	12	13	13	13
Xorijiy valyutada	16	20	19	18	18	17	16	15
Yuridik shaxslar	13	14	13	12	11	11	12	12
Jami	35	42	40	40	42	41	40	40

Izoh: *-prognoz ko‘rsatkichlari

Kreditlar umumiy tuzilmasida aholi kreditlarining YAIMga nisbatan ulushi 2019-yildagi 7 foizdan 2024-yilga kelib 13 foizgacha oshishi prognoz qilingan. Biroq chakana kreditlashning barqarorlashuvi natijasida, bu ko‘rsatkich kelgusi yillarda deyarli o‘zgarmasligi kutilmoqda. Shu bilan birga, mahalliy jamg‘armalarning faollashuvi fonida kredit portfellarining dollarlashuv darajasi pasayishi davom etishi kutilmoqda. Xususan, chet el valyutasidagi kreditlarning YAIMga nisbati 2020-yildagi 20 foizdan 2026-yilgacha 15 foizgacha tushishi prognoz qilingan (2-jadval).

2025–2026-yillarda jami kreditlash 40 % atrofida bo‘lishi prognoz qilinmoqda. Bu esa bank tizimi ichida milliy valyutada (so‘m) barqaror moliyaviy asos yaratishga xizmat qiladi va natijada tijorat banklarining iqtisodiyotni mahalliy valyutada moliyalashtirish salohiyati ortadi. Bunda asosiy resurs manbayi sifatida

¹² Muallif tamonidan shakllantirilgan.

mahalliy jamg'armalardan foydalanish imkoniyati kengayadi.

Bugungi kunda tijorat banklari soni 33 tani tashkil etib, ulardan 12 tasi kapitalida davlat ulushi mavjud banklar, 6 ta bank chet el kapitali ishtirokidagi banklar, 3 ta xususiy banklar, hamda 12 ta aksiyadorlik tijorat banklari tashkil etadi.

Yirik banklarni bo'lish, nomlarini o'zgartirish, xorijiy kapital ishtirokida hamda xususiy kapital ishtirokida banklarni tashkil etishga qaratilgan chora-tadbirlarga qaramay, bank tizimida davlat ulushi mavjud banklarning ahamiyati sezilarli bo'lib qoldi.

2018-yildan boshlab hukumat tashabbusi bilan aholining tadbirkorlik bilan shug'ullanuvchi qatlamini ko'paytirish va buning natijasida aholi turmush darajasini oshirishga qaratilgan islohotlar tijorat banklari kreditlari hajmini oshirdi. Bunday islohotlar yukining katta qismi davlat ulushi mavjud banklar zimmasiga tushdi va bu davlat ulushi mavjud banklarning bank tizimidagi salmog'i sezilarli darajada oshishiga olib keldi.

3-jadval

Davlat ulushi mavjud banklarning tizimdagi ulushi va uning likvidlik barqarorligiga ta'siri (1-yanvar holatiga, foizda)¹³

Ko'rsatkichlar	2018-y.	2019-y.	2020-y.	2021-y.	2022-y.	2023-y.	2024-y.
Umumiy bank tizimi passividagi salmog'i	82,74	84,02	84,38	84,87	81,46	78,16	67,74
Umumiy bank tizimi kapitaliga nisbati	81,81	81,50	86,74	83,97	81,35	77,82	65,14
Jami kreditlardagi ulushi	89,18	88,89	88,21	88,27	85,81	83,24	70,70
Jami depozitlardagi ulushi	67,66	68,08	72,23	71,86	66,74	62,53	51,45

Xususan, 2018-yil 1-yanvar holatiga davlat ulushi mavjud banklar resurslari butun bank tizimidagi resurslarning 82,74 foizini tashkil qilgan bo'lsa, 2021-yil 1-yanvar holatiga bu ko'rsatkich 84,87 foizga yetdi. Ammo keyingi yillarda bu ulush kamayib, 2024-yilga kelib 67,74 foizni tashkil etdi.

Shunday qilib, davlat ulushiga ega banklar kapitali boshqa banklarga nisbatan tezroq sur'atlarda oshdi. Xususan, 2018-yil 1-yanvar holatiga ko'ra, bank tizimi umumiy kapitalining 81,81 foizi davlatga tegishli banklar hissasiga to'g'ri kelgan. Bu ko'rsatkich 2020-yilga kelib 86,74 foizgacha oshgan. Biroq keyingi yillarda bu ko'rsatkichda pasayish tendensiyasi kuzatilgan va 2024-yil holatiga ko'ra, davlat banklarining bank tizimi umumiy kapitalidagi ulushi 65,14 foizgacha kamaygan.

Shuningdek, davlat ulushi mavjud banklarning iqtisodiyotni kreditlashda ishtiroki sezilarli darajada oshgan. Xususan, 2018-yil 1-yanvar holatiga davlat ulushi mavjud banklar kreditlarining butun bank tizimi ajratgan kreditlariga nisbati 89,18 foizni tashkil qilgan bo'lsa, 2021-yil 1-yanvar holatiga bu ko'rsatkich 88,27 foizga teng bo'lgan. 2024-yilga kelib esa ushbu ko'rsatkich 70,70 foizgacha pasaygan.

Davlat ulushi mavjud banklarning depozitlar bo'yicha ulushi ham dastlab o'sdi,

¹³ O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki yillik hisoboti ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi

ammo keyinroq kamaydi. 2018-yilda davlat ulushi mavjud banklar depozitlari jami bank tizimi depozitlarining 67,66 foizini tashkil qilgan bo'lsa, 2020-yilda bu ko'rsatkich 72,23 foizga yetgan. Keyingi yillarda esa pasayib, 2024-yilda 51,45 foizga tushib ketgan.

Yuqorida batafsil tahlil qilinganidek, davlat ulushiga ega banklarning bank tizimidagi umumiy kapitaldagi ulushi 2020-yilda eng yuqori cho'qqiga yetgan, biroq keyingi yillarda barqaror pasayish tendensiyasi kuzatilgan. Bu holat ilgari bozor tamoyillariga asoslangan bank tizimi rivojlanishini susaytirgan va iqtisodiyotda moliyaviy resurslarning samarali taqsimlanishini cheklab kelgan. Mazkur tizimli muammolarga javoban, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2020-yil 12-mayda PF-5992-sonli "2020–2025 yillarda O'zbekiston Respublikasi bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida"gi farmoni imzolangan. Bu farmon bank tizimida mavjud bo'lgan vaziyatga chuqur tahliliy yondashuv sifatida baholanadi.

Ta'kidlash kerakki, barqaror likvidlik boshqaruvi asosan aktiv va majburiyatlarni boshqarish bilan bevosita bog'liqdir. Tijorat bankining likvidligini saqlab qolish, asosan, aktivlar va majburiyatlar oqimini muvofiqlashtirish hamda moliyalashtirish manbalari ularning tegishli muddati profiliga mos kelishini ta'minlashni anglatadi.

4-jadvalda banklarning likvidlilik ko'rsatkichlari holati yillar davomidagi qiyosiy tahlilini amalga oshirilgan. 4-jadval ma'lumotlariga ko'ra, "Agrobank" ATBning Yuqori likvidli aktivlarning jami aktivlardagi ulushi O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan belgilangan talablar doirasida bo'lgan. Boshqacha aytganda, bu ko'rsatkich 2025-yil 1-yanvar holatiga ko'ra 0,169 koeffitsiyentni tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich talab qilingan darajadan 0,069 birlikka yuqori bo'lganligini ko'rish mumkin. Bundan tashqari, "Agrobank" ATB Likvidlikni qoplash me'yori koeffitsiyenti (LCR) hamda Sof barqaror moliyalashtirishning me'yori koeffitsiyenti (NSFR) bo'yicha o'z muvofiqligini diqqat bilan kuzatib bormoqda.

Bankda likvidlilikni qoplash me'yori koeffitsiyenti 2025-yil 1-yanvar holatiga ko'ra 1,958 koeffitsiyenti tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2024-yilga nisbatan solishtirilganda 0,726 koeffitsiyentga oshganligini ko'rish mumkin. Shuningdek, sof barqaror moliyalashtirish me'yori koeffitsiyenti 2025-yilga kelib 2023-2024-yillarga nisbatan sezilarli darajada oshganligini ko'rish mumkin. Bu ko'rsatkich 2025-yil 1-yanvar holatiga ko'ra 1,129 koeffitsiyentni tashkil etgan bo'lsa ham bu talab qilingan darajadan 0,129 birlikka ortiqiligini ko'rish mumkin, bu holat tahlil qilinayotgan tijorat bankida likvidlilik ko'rsatkichlari me'yor darajasida ushlab turilgani holda, uzoq muddatli aktiv operatsiyalar salmog'ining ortganligidan va likvidlikni boshqarishga oid chora-tadbirlarni samarali ekanligidan dalolat beradi.

Tijorat banklarining likvidlilik ko'rsatkichlari holati¹⁴

(foiz hisobida)

Ko'rsatkichlar	Hisobot sanasiga amalda			Me'yoriy darajasi
	01.01.2023	01.01.2024	01.01.2025	
“Agrobank” ATB				
Yuqori likvidli aktivlarning jami aktivlardagi ulushi	0,103	0,118	0,169	Min 0,100
Likvidlilikni qoplash me'yori koeffitsiyenti	1,217	1,232	1,958	Min 1,000
Sof barqaror moliyalashtirish me'yori koeffitsiyenti	1,103	1,040	1,129	Min 1,000
“Biznesni rivojlantirish banki” ATB				
Yuqori likvidli aktivlarning jami aktivlardagi ulushi	0,105	0,113	0,139	Min 0,100
Likvidlilikni qoplash me'yori koeffitsiyenti	1,205	1,175	1,871	Min 1,000
Sof barqaror moliyalashtirish me'yori koeffitsiyenti	1,109	1,021	1,091	Min 1,000
“Asaka bank” AJ				
Yuqori likvidli aktivlarning jami aktivlardagi ulushi	0,119	0,126	0,142	Min 0,100
Likvidlilikni qoplash me'yori koeffitsiyenti	1,151	1,129	1,763	Min 1,000
Sof barqaror moliyalashtirish me'yori koeffitsiyenti	1,113	1,025	1,115	Min 1,000

4-jadval ma'lumotlariga ko'ra, “Biznesni rivojlantirish banki” ATBda yuqori likvidli aktivlarning jami aktivlardagi ulushi O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan belgilangan me'yoriy darajadan yuqorida bo'lgan. Jumladan, ushbu ko'rsatkich 2025 yil 1 yanvar holatiga 0,139 birlikni tashkil etgan bo'lib, bu ko'rsatkich me'yoriy minimumdan 0,039 birlikka yuqori bo'lganini ko'rish mumkin. Bu esa bankning qisqa muddatli majburiyatlarini tezda qoplash imkoniyatiga ega ekanligidan dalolat beradi. Shuningdek, bankning likvidlilikni qoplash me'yori koeffitsiyenti (LCR) 2025 yil 1 yanvar holatiga 1,871 birlikni tashkil etib, 2024 yilga nisbatan 0,696 birlikka oshgan. Bu holat bankda qisqa muddatli likvidlik bosimlariga qarshi barqaror choralar ko'rilayotganini anglatadi.

Sof barqaror moliyalashtirish me'yori koeffitsiyenti (NSFR) ham ijobiy o'sishni ko'rsatgan. Bu ko'rsatkich 2025 yil holatiga 1,091 bo'lib, bu me'yoriy talabdan 0,091 birlikka yuqori. Bu esa bankning uzoq muddatli moliyalashtirish bazasi yetarli ekanligini va aktiv-moliyalashtirish strukturasi barqarorligini anglatadi.

“Asaka bank” AJ ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, “Asaka bank” AJda yuqori likvidli aktivlarning jami aktivlardagi ulushi 2025-yil 1-yanvar holatiga 0,142 birlikni tashkil etib, bu ko'rsatkich ham Markaziy bank belgilagan minimum

¹⁴ Banklar rasmiy sayti ma'lumotlaridan foydalangan holda muallif tomonidan shakllantirilgan.

darajadan 0,042 birlikka yuqori. Bu bankning kundalik likvidlik ehtiyojlarini o‘z vaqtida qoplash imkoniyatiga ega ekanligini ko‘rsatadi. Shuningdek, likvidlikni qoplash me‘yori koeffitsiyenti (LCR) 2025-yilga kelib, 1,763 birlikni tashkil qilgan. Bu ko‘rsatkich 2024-yilga nisbatan 0,698 birlikka oshgan bo‘lib, bank likvidligini saqlash va mustahkamlash borasida amalga oshirilayotgan ishlarning samaradorligini bildiradi.

Sof barqaror moliyalashtirish me‘yori koeffitsiyenti (NSFR) ham ijobiy ko‘rsatkichni namoyon etgan. 2025-yil holatiga bu ko‘rsatkich 1,115 ni tashkil etgan bo‘lib, bu esa me‘yoriy talabdan 0,115 birlikka yuqori. Bu ko‘rsatkich bankda uzoq muddatli moliyaviy barqarorlik ta‘minlanganligini, resurslarning struktural jihatdan to‘g‘ri boshqarilayotganini anglatadi.

5-jadval ma‘lumotlari orqali, “Agrobank” ATBning kapital bazasi tarkibini ko‘rib chiqamiz. Ma‘lumki, bankning moliyaviy barqarorligi ko‘p jihatdan bank kapitali sifatiga bog‘liq. Odatda ustav kapitalining to‘langan qismi birinchi darajali kapitalning eng barqaror elementi hisoblanadi. “Agrobank” ATB kapital bazasi tahlili ko‘rsatishicha, 2025 yilga kelib, ustav kapitalining umumiy o‘zlik (regulyativ) kapital tarkibidagi salmog‘i 111,2 foizni tashkil etgan. Bu esa, 2023-2024-yillarga nisbatan 3-5 foizga oshganligini izohlaydi.

5-jadval

“Agrobank” ATBning kapital bazasi tarkibi va dinamikasi¹⁵

(1 yanvar holatiga, mln. so‘mda)

O‘zlik kapitali tarkibi	2022-y.	2023-y.	2024-y.	2025-y.
Ustav kapital	8 553 958,9	8 553 958,9	10 770 191,0	11 180 191,0
Qo‘shilgan kapital	1 416,8	1 416,8	1 416,8	1 416,8
Rezerv kapitali	382 704,7	204 209,7	771 131,6	789 991,1
Taqsimlanmagan foyda	408 056,2	745 682,2	754 167,7	455 216,0
Jami o‘zlik kapitali	9 346 136,7	9 505 267,0	12 296 907,3	12 426 815,2


Bank kapitalining umumiy tuzilmasida ustav kapitali ulushining ortib borayotgani amaldagi kapitalni tartibga solish amaliyotiga mos keladi. Kapital yetarliligi standartlari bo‘yicha amalga oshirilayotgan islohotlar kapital tarkibidagi yuqori sifatli elementlar ulushini oshirishga alohida e‘tibor qaratmoqda. Mustahkam va yetarli kapital tuzilmasi, odatda, bankning moliyaviy barqarorligini ta‘minlovchi asos — aksiyadorlik kapitalining yuqori ulushi bilan ifodalanadi. Bunga ustav fondi hamda bankning uzoq muddatli moliyaviy barqarorligini qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan qonunchilikda belgilangan va maxsus maqsadli zaxiralar kiradi. Aksariyat holatlarda, kapitalning aksiyadorlik (egalik) shaklidagi ulushi likvidlik bilan ijobiy bog‘liqlikka ega bo‘ladi, bu esa bankning o‘z majburiyatlarini bajarish qobiliyatini oshiradi¹⁶.

Umuman, banklarda umumiy kapital yetarliligi ko‘rsatkichining ortib borishi ijobiy hol hisoblanib, majburiyatlarning bajarilishini kafolatlanganlik darajasini oshiradi va likvidlikka ham ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi.

¹⁵ “Agrobank” ATB ning hisobot ma‘lumotlari asosida tuzilgan.

¹⁶ Коваленко О.Г., Курилова А.А. Теоретические основы управления ликвидностью банка. Вестник НГИЭИ, 2015, №5

“Agrobank” ATB jami passivlari tarkibida bankning jami majburiyatlari salmog‘i 2021-yil 1-yanvar holatiga nisbatan 2025-yil 1-yanvar holatiga 159 foizga oshgan. Shu bilan birga, kredit qo‘yilmalari aktivlar tarkibida bankning jami kreditlar salmog‘i 2021-yilning 1-yanvar holatiga nisbatan 2025-yil 1-yanvar holatiga 137 foizga ko‘tarilgan. Bu o‘z o‘zidan bank likvidligi rentabelligini ma’lum muddatga oshiradi.



4-rasm. Agrobank ATBning moliyaviy ko‘rsatkichlari va kapital yetarliligi oshib borish dinamikasi¹⁷

Tadqiqotchining fikricha, “Agrobank” ATB depozit bazasi sifatini oshirish va uning barqaror manbalardan tashkil topishini rag‘batlantirish maqsadida bank marketingi doirasida bank xizmatlarining maxsus paketlarini shakllantirish lozim. Bunda asosiy e‘tibor, katta miqdordagi pul mablag‘larini uzoq muddatli (odatda 3 yildan ortiq) depozitlarga joylashtirgan mijozlarga bankning boshqa xizmatlari bahosidan chegirmalar taqdim etishga qaratilishi kerak. Bu, birinchidan, depozit bazasi sifatini oshirishga, ikkinchidan, likvid mablag‘larga talabni barqarorlashtirishga xizmat qiladi. Chunki, talab qilib olinguncha depozitlar aktivlar salmog‘idagi kreditlar ta‘minlanmaganligini oshirishi mumkin. Bu bank likvidligini pasaytirishi mumkin.


Tijorat banklari Bazel II ning 14 tamoyiliga asosan, likvidlik darajasini zarur darajada saqlash uchun tijorat banki likvidlikni boshqarish bo‘yicha aniq strategiyaga ega bo‘lishi, likvidlikni har kuni nazorat qilishi va likvidlik muammosiga duch kelganda aniq muqobil yechimlar rejasini tuzishi zarur¹⁸.

Taqqoslash uchun, joriy likvidlik ko‘rsatkichlarining “Agrobank” ATB, “Asaka bank” AJ va “Biznesni rivojlantirish banki” aksiyadorlik tijorat bankidagi holatlarni solishtirgan holda qiyosiy tahlilamalga oshirilgan (4-jadval). Shuningdek, “Biznesni rivojlantirish bank”ida ham kapital yetarliligi ko‘rsatkichining o‘sishi moliyaviy barqarorlik va majburiyatlarni bajarish darajasi oshishini ifodalaydi. “Biznesni rivojlantirish banki” ATBning 2021-yildan 2024-yilgacha bo‘lgan moliyaviy ko‘rsatkichlari tahlil qilinganda, kapitalning 61,3 foizga

¹⁷ Agrobank ATBning rasmiy sayti ma’lumotlari <https://agrobank.uz/uz/shareholders-and-investors/financial>

¹⁸ Basel Committee on Banking Supervision. 2008. “Principles for Sound Liquidity Risk Management and Supervision”, September 2008, Bank for International Settlement, p.32. www.bis.org/publ/bcbs144.pdf

o‘shishi kuzatilgan. Bu esa bankning mustahkam moliyaviy poydevorga ega ekanligini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, bankning umumiy aktivlari 67,3 foizga oshgani, bu jarayonda kredit qo‘yilmalari ulushi 32,3 foizga o‘sganligini anglatadi. Bunday tendensiyalar bankning iqtisodiyotga qo‘shayotgan ulushi ortib borayotganidan dalolat beradi (6-rasm).



5-rasm. “Biznesni rivojlantirish banki”ning moliyaviy ko‘rsatkichlari va kapital yetarliligi oshib borish dinamikasi¹⁹


Biroq majburiyatlar hajmining aktivlarga nisbatan tezroq o‘shishi, 2024-yilda 64,4 foizga oshganligi, bankning likvidlik xavfsizligi uchun qo‘shimcha choralarni talab qiladi. Bu sharoitda bankning uzoq muddatli va barqaror moliyaviy manbalarga tayanishi muhim ahamiyat kasb etadi. Shu maqsadda, bank tomonidan kichik va o‘rta biznesga xizmat ko‘rsatishda innovatsion mahsulotlar va xizmatlar joriy etilishi, mijozlarning depozit joylashtirishga bo‘lgan ishonchini oshirishda asosiy vosita bo‘lishi mumkin.

Bundan tashqari, “Biznesni rivojlantirish banki” ATB likvidlikni ta’minlash va moliyaviy risklarni kamaytirish maqsadida, talab qilib olinguncha depozitlarning salmog‘ini pasaytirib, uzoq muddatli depozitlarni rag‘batlantirish dasturini joriy etishi kerak. Bunda yuqori daromadli foizli hisobvaraqlar, maxsus xizmat paketlari va mijozlarga moslashuvchan shart-sharoitlar taqdim etilishi zarur. Bunday choralar bankning uzoq muddatli barqaror rivojlanishini kafolatlash bilan birga, mijozlarning bankka ishonchini oshiradi va iqtisodiyotni kreditlash hajmini kengaytirish imkonini yaratadi.

Xususan, “Asaka bank”ning moliyaviy ko‘rsatkichlari o‘shishi yoki kamayishi turli omillar bilan bog‘liq bo‘lib, bularning har biri bank faoliyatining barqarorligi va rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatadi. “Asaka bank”ning 2021-2024-yillar oralig‘idagi ko‘rsatkichlari tahlil qilinadigan bo‘lsa, umumiy aktivlar hajmining 2021-yilga nisbatan 2024-yil 1-yanvarga qadar 8,8 % ga, kredit qo‘yilmalari hajmi esa 17,7 %ga oshgani kuzatiladi. Shu bilan birga, bankning majburiyatlari 2025-yil 1-yanvarga qadar 16,4 %ga oshgan bo‘lsa, kapital hajmi asosan barqaror bo‘lib qolgan.

¹⁹ Biznesni rivojlantirish banki yillik moliyaviy ko‘rsatkichlariga tayangan holda muallif tomonidan shakllantirildi <https://brb.uz/bank-haqida/moliyaviy-korsatkichlar?tab=msfo>

Aktivlarning o‘shishi bankning moliyaviy salohiyati va resurslari hajmi kengayishini ko‘rsatadi. Bu holat bankning mijozlarga xizmat ko‘rsatish doirasini kengaytirish va iqtisodiyotdagi kreditlash ulushini oshirish imkonini beradi. Aktivlarning o‘shishiga ichki va tashqi investitsiyalarning ko‘payishi, yangi moliyaviy mahsulotlar joriy qilinishi va mijozlar ishonchi ortishi sabab bo‘lgan bo‘lishi mumkin.



6-rasm. “Asaka bank”ning moliyaviy ko‘rsatkichlari va kapital yetarliligi oshib borish dinamikasi²⁰

Kredit qo‘yilmalarining 17,7 %ga o‘shishi bankning real sektorni qo‘llab-quvvatlashdagi faol ishtirokini anglatadi. Bu holat, o‘z navbatida, bankning kredit portfeli diversifikatsiyasini oshirish va iqtisodiyotdagi barqarorlikni ta‘minlashga xizmat qiladi. Ammo, kredit qo‘yilmalarining ortishi bankning likvidlik darajasiga ehtiyotkorlik bilan yondashuvni talab qiladi, chunki yuqori kreditlash majburiyatlarni bajarish qobiliyatini kamaytirishi mumkin.

Majburiyatlarning 16,4 %ga oshishi bankning uzoq muddatli depozitlar va qarz manbalariga talabi ortganligini anglatadi. Bu holat bankning resurslarini ko‘paytirish va kreditlash faoliyatini kengaytirishga yordam beradi. Ammo, bu jarayon majburiyatlarni qoplash imkoniyatlarini nazorat qilishni talab etadi, aks holda bank likvidligi va barqarorligi xavf ostida qolishi mumkin.

Kapital hajmining sezilarli darajada o‘zgarmagani bankning ehtiyotkorlik siyosati va risklarni boshqarish borasidagi barqaror yondashuvini aks ettiradi. Kapitalning yetarli darajada saqlanishi bankning moliyaviy xavfsizligini ta‘minlash va investorlar ishonchini oshirish uchun muhim omildir.

Tadqiqotchining fikricha, o‘zining moliyaviy barqarorligini saqlab qolish va rivojlantirish maqsadida quyidagi choralarni amalga oshirishi maqsadga muvofiq:

Bankning depozit bazasini kengaytirish uchun uzoq muddatli depozitlar bo‘yicha maxsus imtiyozlarni joriy qilish lozim. Uzoq muddatli depozitlar bankning likvidlik xavfsizligini ta‘minlaydi va kreditlash uchun barqaror resurs manbalarini yaratadi.

Bank kredit portfelini diversifikatsiyalash orqali yuqori riskli sektorlar bilan bog‘liq xavflarni kamaytirishi mumkin. Bu esa kreditlash hajmini oshirgan holda,

²⁰ Asaka bank rasmiy sayti ma‘lumotlari asosida muallif tomonidan shakllantirilgan

risklarni minimal darajaga tushiradi.

Majburiyatlar o‘shishini nazorat qilish maqsadida, bank marketing siyosatini kuchaytirib, uzoq muddatli resurslarni jalb qilishni targ‘ib qilish lozim. Bundan tashqari, qarz manbalari rentabelligini oshirish orqali moliyaviy barqarorlikni mustahkamlash mumkin.

Bankning xizmatlar doirasini kengaytirish uchun innovatsion moliyaviy mahsulotlar va xizmatlar joriy qilinishi muhim. Bu, bir tomondan, yangi mijozlarni jalb qilishga, boshqa tomondan esa moliyaviy ko‘rsatkichlarning yanada yaxshilanishiga olib keladi.

Mazkur tahlil va tavsiyalarni amalga oshirish bankning moliyaviy barqarorligini oshirish bilan birga, uning iqtisodiyotdagi o‘rnini mustahkamlashga xizmat qiladi. Shu orqali “Asaka bank” iqtisodiyotning asosiy moliyaviy vositachilaridan biri sifatida o‘z faoliyatini davom ettirishi mumkin.

Agar kredit hajmining o‘shishi va aholi daromadlari hozirgi sur‘atda davom etsa, quyidagi potensial xavflar yuzaga kelishi mumkin:

kredit to‘lovlarining umumiy daromaddagi ulushi oshishi natijasida qarz oluvchilarning moliyaviy holati yomonlashuvi;

kelajakdagi daromadlar o‘shish sur‘atlarining noto‘g‘ri baholanishi tufayli moliyaviy qiyinchiliklar to‘planishi;

qarz yuki ortishi va aholi to‘lov qobiliyatining pasayishi natijasida bank sektorining kredit portfelida muddati o‘tgan kreditlar ulushi ko‘payishi;

iste‘mol tovarlari va xizmatlariga talab vaqtinchalik tiklangach, uzoq muddatli iste‘mol tovarlari ishlab chiqarish kelajakda qisqarishi.

Tijorat banklari likvidligini ta‘minlash va tartibga solish mamlakat iqtisodiyotining umumiy samarali va barqaror pul-kredit siyosatini amalga oshirish uchun nihoyatda muhimdir.

So‘nggi o‘n yillikda Rossiya, Qozog‘iston va Turkmanistonning likvidligi asosan passiv vositalarga tayanib keldi. Yuqori energiya narxлари likvidlik darajasi ortishiga olib kelib, natijada likvidlik yemirilishiga sabab bo‘ldi.

Zaxira talablarini likvidlikni jalb qilishda samarali vosita sifatida qo‘llash mumkin edi, biroq ular amalda juda faol foydalanilmadi. Ta‘kidlash lozimki, bu mamlakatlarning markaziy banklarida bozor instrumentlarini boshqarishning samarali siyosati orqali tijorat banklari uchun likvidlik darajasini tartibga solishga muvaffaq bo‘lindi.

Tijorat banklari aktivlar samaradiligiga makro va mikro darajadagi omillar ta‘siri yaqqol namoyon bo‘ldi. Shundan kelib chiqqan holda, tadqiqotda tijorat banklari likvidli aktivlariga ta‘sir etuvchi makro va mikro darajadagi omillar va ularning korrelyatsion bog‘liqligi bo‘yicha tahlillarni amalga oshirish maqsadga muvofiq.

To‘plagan ma‘lumotlar, jumladan maxsus ko‘rsatkich, ya‘ni panel ma‘lumotlari²¹ asosida tahlil qilinib, xususan, bunday panel birliklari sifatida aktsiyadorlik tijorat “Agrobank” bankning 10 ta filialining likvidli aktivlari jami qiymati, kapitallashuv darajasi, resurs (uzun pullar) bazasi, debit aylanmasi eng kam

²¹<http://www.classes.ru/dictionary-english-russian-scienceenru-term-78341.htm>. Ko‘p o‘lchovli vaqtlar qatori ma‘lumotlari

ish haqidan 5000 barobaridan yuqori bo'lgan mijozlar soni, bu banklar kreditining o'rtacha foiz stavkasi hamda hududlardagi raqobatchi banklar soni ma'lumotlari 2009-2024-yillar bo'yicha aks ettirilgan (ekonometrik tahlilning asosiy jadvallari ilova qismida berilgan). Mazkur, ma'lumotlardan kelib chiqqan holda, panel ma'lumotlari asosida regression va korrelyatsion tahlil amalga oshirildi. Panel ma'lumotlar asosida ekonometrik tahlilni amalga oshirish aksiyadorlik tijorat "Agrobank" bankning likvidli aktivlariga ta'sir qiluvchi omillar ta'sirini aniq baholash imkoniyatini beradi.

Tadqiqotda erksiz o'zgaruvchi sifatida aksiyadorlik tijorat "Agrobank" bankining likvidli aktivlari qiymati tanlangan. O'z navbatida, erkli o'zgaruvchi sifatida esa, bir nechta mikro va makro darajadagi o'zgaruvchilar, jumladan, mikro darajadagi o'zgaruvchilar sifatida kapitallashuv darajasi, resurs (uzun pullar) bazasi, debit aylanmasi eng kam ish haqidan 5000 barobaridan yuqori bo'lgan mijozlar soni, bu banklari kreditining o'rtacha foiz stavkasi tanlab olindi. Makro darajadagi erkli o'zgaruvchi sifatida esa, hududlardagi raqobatchi banklar soni, ma'lumotlar ko'rsatkichlari tanlanib, ekonometrik tahlilni amalga oshirish maqsadga muvofiq, deb topildi. Mazkur o'zgaruvchilarni e'tiborga olgan holda, aksiyadorlik tijorat "Agrobank" bankining likvidli aktivlari qiymatiga ta'sir qiluvchi omillardan kelib chiqqan holda, quyidagi sodda matematik formula ko'rinishida ifodalash mumkin:

$$AS = F(CR, LM, NC, AR, NB), \quad (2)$$

bu yerda: *AS* – aksiyadorlik tijorat "Agrobank"ni filiallarining likvidli aktivlari qiymati; *CR* – aksiyadorlik tijorat "Agrobank"ni filiallarining kapitallashuv darajasi; *LM* – aksiyadorlik tijorat "Agrobank"ni filiallarining resurs "uzun pullari" qiymati; *NC* – aksiyadorlik tijorat "Agrobank"ni filiallarining debit aylanmasi eng kam ish haqidan 5000 barobaridan yuqori bo'lgan mijozlar soni; *AR* – aksiyadorlik tijorat "Agrobank"ni filiallarining kreditini o'rtacha foiz stavkasi; *NB* – hududlardagi raqobatchi banklar soni.

Matematik funksiya shakllantirilgach, tanlangan o'zgaruvchilarni natural logarifmga o'tkazib, birinchi navbatda, panel modelida ishlatiladigan o'zgaruvchilarning tasviriy statistikasi amalga oshiriladi (6-jadval).

6-jadval

Panel modelida ishlatiladigan o'zgaruvchilarning tasviriy statistikasi²²

O'zgaruvchilar	Kuzatuvlar	O'zgaruvchilarning o'rtachasi	Standart chetlanish	O'zgaruvchilarning minimum nuqtasi	O'zgaruvchilarning maksimum
ln as	120	24,4706	242,1604	21,5710	29,2226
ln cr	120	21,3872	394,6960	17,7090	27,6497
ln lm	120	23,5805	258,4179	20,8719	29,2017
ln nc	120	4,1218	31,7083	2,6390	5,7365
ln ar	120	2,7127	1,0399	2,4025	2,9519
ln nb	120	4,1192	14,4679	3,5263	5,1179

6-jadvaldagi panel ma'lumotlari asosida o'zgaruvchilarning tasviriy statistikasidan aksiyadorlik tijorat "Agrobank"ni filiallari aktivlari, aktivlar qiymati (ln_{as}) o'rtacha tebranishi 24,4706 bandni tashkil etsa, mazkur o'zgaruvchining

²² Aksiyadorlik tijorat "Agrobank" ma'lumotlari asosida Eviews-12.0 dasturi yordamida muallif tomonidan tayyorlangan.

maksimum nuqtasi 29,2226 bandni minimum nuqtasi 21,5710 bandni, standart chetlanish esa, 242,1604 bandni tashkil etganligini ko‘rish mumkin. Bu esa, aksiyadorlik tijorat “Agrobank”ni filiallari aktivlarning qiymati qay darajada volatilitiligi ko‘rsatadi.

Kapitallashuvi darajasi esa, (ln_cr) tasviriy statistikada tahlil qilinsa, o‘rtacha tebranish ko‘rsatkichi 21,3872 bandni, maksimum nuqtasi 27,6497 bandni, minimum nuqtasi 17,7090 bandni tashkil etib, standart chetlanishi esa, 394,6960 bandni tashkil etganligini ko‘rish mumkin. Bundan ko‘rinib turibdiki, bank filiallari kapitallashuvining o‘shish hajmi yuqori o‘shish ekanligidan dalolat beradi.

Qolgan o‘zgaruvchilar hisoblangan asosiy debit aylanmasi eng kam ish haqidan 5000 barobaridan yuqori bo‘lgan mijozlar soni (ln_nc) va hududlardagi raqobatchi banklar soni (ln_nb) ham standart chetlanishi 10 va 35 oraliqdagi bandni tashkil qilgan bo‘lib, bu o‘zgaruvchilarning volatilitigi yuqori ekanligidan dalolat beradi.

Hududlar kesimida filiallari kreditning o‘rtacha foiz stavkasi (ln_ar) o‘zgaruvchi esa, o‘zgaruvchilar ichida standart chetlanishi 1,0399 bandni tashkil etgan bo‘lib, volatilitigi past darajada hisoblanadi. Bunday o‘zgaruvchining o‘rtacha tebranishi 2,7127 bandni tashkil etgan bo‘lsa, maksimum nuqtasi 2,9519 bandni minimum nuqtasi 2,4025 bandni tashkil etdi. Bundan ko‘rinib turibdiki, mazkur o‘zgaruvchi koeffitsiyentning tebranishi yuqori ekanligidan dalolat beradi. O‘zgaruvchilarning tasviriy statistikasi tahlilini amalga oshirilgach, panel ma’lumotlari asosida korrelyatsion matritsani amalga oshiriladi. Chunki, tadqiqotda panel ma’lumotlar asosida ko‘p omilli chiziqli funktsiya shakllantiriladi. Biroq, ko‘p omilli funktsiyani shakllantirishda erksiz o‘zgaruvchilar orasida ma’lum darajada korrelyatsiya mavjud bo‘lib, bu esa multikollinarlik muammosini keltirib chiqaradi.

Natijada, erksiz o‘zgaruvchiga asosiy ta’sir qiluvchi erkli o‘zgaruvchining ta’siri yo‘qolishiga olib keladi. Shundan kelib chiqqan holda, multikollinarlik muammosini hal qilish maqsadida tanlagan o‘zgaruvchilarning korrelyatsion matritsasi tuzilgan, mazkur korrelyatsion matritsa quyidagi jadvalda o‘z ifodasini topgan (7-jadval).

7 jadval

O‘zgaruvchilarning korrelyatsion bog‘liqlik matritsasi²³

O‘zgaruvchilar	ln_as	ln_cr	ln_lm	ln_nc	ln_ar	ln_nb
ln_as	1					
ln_cr	0,9621	1				
ln_lm	0,9461	0,9403	1			
ln_nc	0,8319	0,8502	0,8035	1		
ln_ar	-0,3150	-0,3878	-0,3495	-0,3315	1	
ln_nb	0,5763	0,6681	0,6476	0,5086	-0,6032	1

7-jadvaldagi korrelyatsion matritsadan ko‘rinib turibdiki, o‘zgaruvchilar o‘rtasida multikollinarlik muammosi mavjud. Ko‘p omilli regressiya modelining

²³Aksiyadorlik tijorat “Agrobank” ma’lumotlari asosida Eviews-12.0 dasturi yordamida muallif tomonidan tayyorlangan.

nazariyasidan kelib chiqqan holda, multikollinarlik muammosi quyidagi tarzda aniqlanadi. Korrelyatsion matritsa jadvaliga ko‘ra, ln_nc o‘zgaruvchining korrelyatsiya koeffitsiyenti 0,8502 bo‘lishi, ko‘p omilli regressiya modelining standart xatolik ko‘rsatkichi ortib ketishiga olib keladi. Bundan tashqari, ln_ar o‘zgaruvchining korrelyatsiya koeffitsiyenti minusda bo‘lishi, barcha o‘zgaruvchilar teskari ta’sir qilishi aniqlandi. Natijada, ayrim erkli o‘zgaruvchilarning erksiz o‘zgaruvchiga ta’siri yo‘qolishiga olib keladi.

Shundan kelib chiqqan holda, korrelyatsion matritsada o‘zgaruvchilar koeffitsiyenti yuqori bo‘lganligi uchun ko‘p omilli regression modeldan chiqarib tashlanadi. Shu bilan birga, yuqori korrelyatsiyaga ega o‘zgaruvchi ln_nc hamda ln_ar olib tashlagan holda, panel modellari hisoblashdan yig‘ma, o‘zgarmas effekt va tasodifiy effekt modellari ko‘rsatkichlari hisoblangan (8-jadval).

8-jadval

Panel regression model ko‘rsatkichlari natijalari ($Y_{it} = \beta_0 + X_{it}^I \beta + \epsilon_{it}$) (2009-2024-yillar ma’lumotlari asosida)²⁴

Erksiz o‘zgaruvchi (ln_as)	(1)	(2)	(3)
	Yig‘ma model	O‘zgarmas effekt modeli	Tasodifiy effekt modeli
ln_cr	0.5436 *** (0.0000)	0.6369*** (0.0000)	0.5841*** (0.0000)
ln_lm	0.3677*** (0.0000)	0.3606*** (0.0000)	0.3637*** (0.0000)
ln_nb	-0.5459*** (0.0000)	-0.8493*** (0.0037)	-0.6692*** (0.0000)
C(constant)	6.4205*** (0.0000)	5.8424*** (0.0137)	6.1570*** (0.0000)
Kuzatuvlar soni	120	120	120
R-kvadrat	0.9502	0.9684	0.9456
Bank filiallar soni	10	10	10

*Qavslar ichidagi ko‘rsatkichlar standart xatolik P-qiyamatdagi, ***P<0,01, **P<0,05, *P<0,1*

8-jadvaldagi ma’lumotlardan uchta modeldagi tanlagan erkli o‘zgaruvchilarining P-qiyamati 0,001 dan kichik ekanligini ko‘rishimiz mumkin. Ushbu ko‘rsatkich shuni anglatadiki, biz tanlagan o‘zgaruvchilar, ya’ni ln_cr, ln_lm va ln_nb erkli o‘zgaruvchilar erksiz o‘zgaruvchiga ln_as bevosita ta’sir qiladi.

Agar mazkur erkli o‘zgaruvchilarning gipoteza testi amalga oshirilsa, uchta modelda ham ln_cr, ln_lm va ln_nb o‘zgaruvchilarning koeffitsiyenti 1 foizda statistik muhimlik darajasida ta’sir ekanligini ko‘rish mumkin. Bu shuni anglatadiki, uchta erkli o‘zgaruvchi erksiz o‘zgaruvchiga ta’sir qilib, erkli o‘zgaruvchining to‘liq ta’sir darajasini ifoda eta oladi. R-kvadratlarga nazar tashlansa, uchala modelda ham birga yaqinligini ko‘rish mumkin. Ekonometrika nazariyasiga asosan R-kvadrat qanchalik birga yaqin bo‘lsa, yaratilgan regression model standart xatoliklar to‘g‘ri chiziqqa yaqinligini anglatadi.

²⁴Aksiyadorlik tijorat “Agrobank” ma’lumotlari asosida Eviews-12.0 dasturi yordamida muallif tomonidan tayyorlangan.

Dissertatsiyaning **“Tijorat banklari likvidligini tartibga solishni takomillashtirish yo‘llari”** deb nomlangan uchinchi bobida tijorat banklari likvidligini tartibga solishning xorij tarjibasi va amaliy masalalarni takomillashtirish istiqbollari o‘rganilgan.

O‘zbekistonda bank tizimi barqarorligini mustahkamlash va tizimli xatarlarni minimallashtirish masalasi so‘nggi yillarda Markaziy bank hamda tijorat banklari faoliyatida ustuvor yo‘nalishlardan biriga aylandi. Likvidlik yetishmovchiligi banklarning kundalik to‘lovga layoqatidan tortib, makroiqtisodiy barqarorlikka qadar keng ko‘lamli natijalarga olib kelishi mumkin. Shu bois, Agrobank ATBda 2023-2025-yillar davomida likvidlikni tartibga solish bo‘yicha kompleks tashabbuslarni ishga tushirishda tadqiqotining asosiy ilmiy yangiliklaridan foydalanilgan. Mazkur bobda to‘rtta asosiy ilmiy amaliy natija – yevroobligatsiyalar emissiyasi, resurs portfelini qayta tuzish, ish kuni davomida likvidlikni boshqarish tartibi hamda o‘zgarmas effektli prognoz modelining bosqichma-bosqich joriy etilishi, ular ortidagi xalqaro hamkorlik va erishilgan moliyaviy ko‘rsatkichlar tizimli ravishda tartibga solinganligini takidlash joiz.

Tijorat banklari tomonidan yevroobligatsiyalar emissiyasini joriy etish orqali tashqi moliyaviy resurslarni jalb qilish mexanizmini shakllantirish va likvidlik uzluksizligini ta‘minlashni tartibga soluvchi moliyaviy model asosida likvid aktivlar ulushini kamida 18-20 % darajasida saqlab turish hamda normativ likvidlik ko‘rsatkichlarini 1,2 barobarga yaxshilash taklif etildi. Bunda, “Agrobank” ATB tomonidan ilk bor 2024-yilda London va Vena fond birjalarida qiymati 400 mln. AQSh dollari hamda 700 mlrd. so‘mga teng yevrobondlar chiqarilgan. Bu emissiya jarayoniga Citigroup, Société Générale, Standard Chartered Bank, MUFG, ICBC Standard Bank va Mashreqbank singarii jahonga mashhur investitsiya banklari jalb qilinib, yevroobligatsiyalar muvaffaqiyatli joylashtirilgan.

Natijada bank yuqori likvidli aktivlar ulushini sezilarli ravishda oshirishga erishgan – 2025-yil 1-yanvar holatiga bu ko‘rsatkich o‘tgan yilga nisbatan 43,22 foizga oshgan. Ta‘kidlash joizki, “Agrobank” ATB yevroobligatsiyalar emissiyasiga investorlardan juda katta qiziqish kuzatilgan, bu esa O‘zbekiston bank tizimiga xalqaro ishonch ortayotganidan dalolat beradi. Shunday qilib, tijorat banklari tomonidan euroobligatsiyalar chiqarish likvidlikni uzluksiz ta‘minlashning yangi samarali vositasi sifatida ilmiy-amaliy jihatdan tasdiqlandi; u xorijiy kapital bozorlaridan barqaror uzoq muddatli resurslar jalb etish orqali bankning likvidlik holatini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Tijorat banklari resurslarining asosiy qismini qisqa muddatli daromad keltiruvchi aktivlarga yo‘naltirish, investitsion loyihalarni moliyalashtirishda uzoq muddatga jalb qilingan depozitlar va xorijiy kredit liniyalar mablag‘lari hisobidan amalga oshirish hamda bir yildan ortiq muddatli majburiyatlar ulushini 70 %gacha yetkazish orqali likvidlikni ta‘minlash taklifi ishlab chiqilgan;

Tijorat banklari likvidligini kafolatlash maqsadida tadqiqotda aktiv va passivlarni muddatlar bo‘yicha muvofiqlashtirish strategiyasi taklif qilingan. Bu yondashuvga ko‘ra, bankda jalb etilgan resurslarning asosiy qismini qisqa muddatli daromad keltiruvchi aktivlarga yo‘naltirish tavsiya etiladi, uzoq muddatli

investitsion loyihalarni moliyalashtirish esa faqat uzoq muddatga jalb qilingan depozitlar va xorijiy kredit liniyalari mablag‘lari hisobidan amalga oshirilishi lozim. Bunday “muddatlar uyg‘unligi”ni ta‘minlash bankning likvidlik xatarini kamaytiradi, zero qisqa muddatli majburiyatlar hisobiga uzoq muddatli kreditlar berish amaliyoti jiddiy likvidlik muammolariga olib kelishi mumkin. Tadqiqot doirasida bank majburiyatlari tarkibida bir yildan ortiq muddatli (barqaror) mablag‘lar ulushini 70 %gacha yetkazish taklifi ishlab chiqilgan.

Bu taklifni amaliyotga joriy etish natijasida bankning qisqa muddatli kredit portfeli hajmi sezilarli oshdi – 2025-yil 1-yanvar holatiga qisqa muddatga ajratilgan kreditlar qoldig‘i 14,5 trln. so‘mni tashkil etib, o‘tgan yilga nisbatan 4,0 trln. so‘mga ko‘paydi. Shu bilan birga, bankning 1 yildan ortiq muddatli majburiyatlari hajmi o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 9,3 trln. so‘mga (ya‘ni 53,41 %ga) o‘tdi. Natijada bank aktivlari va passivlarining muddat tuzilmasi yaxshilandi hamda likvidlik barqarorligi mustahkamlandi. Taklif etilgan strategiya xalqaro tartibga solish talablariga (masalan, Basel III doirasidagi Net Stable Funding Ratio ko‘rsatkichiga) ham muvofiq bo‘lib, bankning qisqa muddatli likvid aktivlar ulushini oshirishi va uzoq muddatli moliyaviy manbalarni ko‘paytirishi orqali likvidlik xavfini sezilarli darajada pasaytiradi.

Bank ish kuni davomida real vaqt rejimida pul oqimlari monitoringi, normativ likvidlilik darajasiga yaqinlashish signali va avtomatlashgan korrektiv harakatlar algoritmini o‘z ichiga olgan likvidlilikni boshqarish tartibini joriy etish orqali tezkor likvidlik koeffitsiyentining 1,0 dan pastga tushish xavfini 70 %gacha kamaytirish taklifi ilmiy jihatdan asoslangan. Xususan, mazkur taklif amaliyotga joriy etilishi natijasida banklarda kun davomida yuzaga keluvchi likvidlik tafovutlarini tezkor aniqlash, ularni samarali tarzda boshqarish va moliyaviy barqarorlikni ta‘minlash imkoni yaratilgan.

Tijorat banklarining likvidlilikini tartibga solishga ta‘sir qiluvchi omillarning o‘zgarmas effekt modeli orqali “Agrobank” aksiyadorlik tijorat bankining likvidlik aktivlari qiymati o‘shishining 2029-yilga qadar ishlab chiqilgan prognoz ko‘rsatkichlaridan “Agrobank” ATBning faoliyatida foydalanilgan. Bu taklif natijasida “Agrobank” ATBning likvidli aktivlarini samaradorligiga ta‘sir qiluvchi omillar aniqlangan, shuningdek, aktivlar hajmiga ta‘sir qiluvchi omillarni baholash imkoni yaratilgan.

Ekonometrik tahlil natijasidan xulosa qilish mumkinki, erkli o‘zgaruvchilar, xususan kapitallashuvi darajasi, resurs “uzun pullari” qiymati, hududlardagi raqobatchi banklar soni boshqa omillari Aksiyadorlik tijorat “Agrobank”ning likvidli aktivlari hajmiga ta‘sir qiladi (boshqa omillar o‘zgarmagan (ceteris paribus) ta‘sir qiladi). Yuqoridagi uchta modelning ekonometrik ko‘rinishini quyidagi formulada o‘z aksini topgan.

1. Yig‘ma model

$$\ln_{as_{it}} = 6.4205 + 0.5436 \cdot \ln_{cr_{it}} + 0.3677 \cdot \ln_{lm_{it}} - 0.5459 \cdot \ln_{nb_{it}} + e_{it} \quad (3)$$

2. O'zgaras effekt model

$$\ln_{asit}=5.8424+0.6369\cdot \ln_{cr_{it}}+0.3606\cdot \ln_{lm_{it}}-0.8493\cdot \ln_{nb_{it}}+e_{it} \quad (4)$$

3. Tasodifiy effekt model

$$\ln_{asit}=6.1570+0.5841\cdot \ln_{cr_{it}}+0.3637\cdot \ln_{lm_{it}}-0.6692\cdot \ln_{nb_{it}}+e_{it} \quad (5)$$

Hisoblangan yig'ma, o'zgaras va tasodifiy effektlar modellari ko'rsatkichlariga nazar tashlasak, deyarli farq juda katta emasligini ko'rish mumkin. Erkli o'zgaruvchilar koeffitsiyentlarida juda katta farq mavjud emas. Shundan kelib chiqqan holda, mazkur modellardan qaysi biri yaxshiroq va prognoz qila oladigan model ekanligini aniqlash uchun J.Xausman testidan foydalangan holda, aniqlandi. Jumladan, Xausman testida shuni ko'rsatadiki, agar regressor (mustaqil o'zgaruvchi) va ta'sirlar o'rtasida korrelyatsion bog'liqlik mavjud bo'lmasa, o'zgaras va tasodifiy effektlar mavjud bo'lib, lekin o'zgaras ta'sirlar samarasiz hisoblanadi. Regressor va ta'sirlar o'rtasida korrelyatsiya mavjud bo'lsa, o'zgaras ta'sirlar mavjud bo'ladi, lekin tasodifiy effektlar mavjud emas hisoblanadi. Nolinchi gipoteza asosan quyidagi ekonometrik formula yordamida aniqlanadi.

$$W = (\beta_{RE} - \beta_{FE})' \Sigma^{-1} (\beta_{RE} - \beta_{FE}) \sim \chi^2(k). \quad (6)$$

Agar W statistik ahamiyatli bo'lsa, ya'ni ehtimolligi 5 foizdan kam bo'lsa, o'zgaras ta'sirlar modeli yaxshiroq model hisoblanadi. Agar mazkur ehtimollik ko'rsatkichi 5 %dan katta bo'lsa, tasodifiy ta'sirlar modeli yaxshiroq model hisoblanadi. Bu, testning tahlilini quyidagi jadvalda ko'rish mumkin (9-jadval).

9-jadvaldagi J.Xausman testi natijalari o'zgaras effekt modeli boshqa modellarga nisbatan yaxshiroq ekanligini ko'rsatmoqda. O'zgaras effekt modeli yaxshiroq ekanligini P-qiymat ehtimolligi ko'rsatikichiga qarab nolinchi gipoteza va muqobil gipoteza farazidan foydalanib aniqlangan.

9-jadval

J.Xausman testi natijalari²⁵

O'zgaruvchilar	O'zgaras effekt (a)	Tasodifiy effekt (b)	O'zgaruvchilarning farqi (a-b)	Ehtimolligi darajasi
ln_cr	0.636926	0.584102	0.000559	0.0255
ln_lm	0.360667	0.363785	0.000956	0.9197
ln_nb	-0.849311	-0.669286	0.760076	0.8364
		χ^2 -kvadrat statistikasi	χ^2 -kvadrat taqsimoti	Ehtimollik darajasi
Tasodifiy ta'sirlarning kross-seksioni ²⁶ (Cross-section random)		24.861193	3	0.0000

9-jadvalga ko'ra, nolinchi gipotezada o'zgaras effekt modeli qabul qilinadi.

²⁵ Aksiyadorlik tijorat "Agrobank" ma'lumotlari asosida Eviews-12.0 dasturi yordamida muallif tomonidan tayyorlangan.

²⁶ Kesishish nuqtalaridagi tasodifiy ta'sirlar.

Muqobil gipotezada tasodifiy effekt modeli inkor etiladi. Shundan kelib chiqqan holda, agar P-qiymat ehtimolligi 5 foizdan kichik bo'lsa, nolinci gipoteza to'g'ri, deb qabul qilinadi. Tadqiqotdagi Xausman testdagi χ^2 -kvadrat (χ^2)ni statistic muhimligi darajasi 5 foizdan kichik bo'lgani, ya'ni χ^2 -kvadrat (χ^2) ehtimolligi P-qiymat 0.0000 ga tengligi, o'zgarma effect modeli boshqa modellarga nisbatan yaxshiroq ekanligini ko'rsatadi. J.Xausman testidan keyin tadqiqotimizda eng yaxshi model o'zgarma effekt modeli hisoblanadi.

Mazkur testdan keyin, qoldiqlar (residuals) o'rtasidagi korrelyatsion bog'liqlik testio'tkaziladi. Bu testning natijasini quyidagi jadvalda ko'rish mumkin (10-jadval).

10-jadval

Tasodifiy ta'sirlar modelining qoldiqlari o'rtasidagi bog'liq testi natijalari²⁷

Test	Statistik qiymat	Erkinlik darajasi	Ehtimolligi darajasi
Breusch-Pagan LM	155.1550	66	0.0000
Pesaran scaled LM	6.715483		0.0000
Pesaran CD	10.07368		0.0000

10-jadvaldagi qoldiqlar o'rtasidagi bog'liqlik testi qoldiqlar o'rtasida korrelyatsiya mavjud emasligini ko'rsatadi. Chunki, nolinci gipoteza o'tkazilganda Breusch-Pagan LMni P-qiymati 5 %dan kichik bo'lib, unga ko'ra qoldiqlar o'rtasidagi korrelyatsiya mavjud emasligi inkor etilib, muqobil gipotezaga ko'ra qoldiqlar o'rtasidagi korrelyatsiya mavjudligi qabul qilinadi.

Bundan ko'rinib turibdiki, hududlar kesimidagi asosiy kapitalga kiritilgan markazlashgan investitsiya, yalpi hududiy mahsulot hajmi oshishi va xorijiy investitsiyalar hajmi oshishi hududning investitsiya hajmi o'sishiga ta'sir etishidan dalolat beradi.

Tijorat banklarida likvidlikni tartibga solish rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar uchun umumiy muammo hisoblanadi. Avvalgi boblarda amalga oshirilgan ekonometrik tahlillarga asoslanib aytish mumkinki, tijorat banklarida likvidlikni tartibga solishda hal etilishi lozim bo'lgan qator muammolar mavjud.

Dissertatsiyada tijorat banklarida likvidlikni tartibga solish nazariyalari hamda amaliy qo'llash yondashuvlari tahlil qilingan. Xususan, banklarning ko'chirish (shiftability) nazariyasi, kutilayotgan daromad (expected income) nazariyasi va majburiyatlarni boshqarish (liability management) nazariyalari mufassal o'rganilgan.

Tadqiqotchining fikricha, O'zbekiston tijorat banklarida majburiyatlarni boshqarish nazariyasini amaliyotga joriy etish likvidlikni samarali boshqarishga yordam berishi mumkin. Bu yondashuv bank resurs bazasida barqaror uzoq muddatli mablag'lar ulushini oshirishga qaratilgan bo'lib, bu likvidlik darajasini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Tadqiqot doirasida aksiyadorlik tijorat "Agrobank"ni aktivlari qiymati

²⁷Aksiyadorlik tijorat "Agrobank" ma'lumotlari asosida Eviews-12.0 dasturi yordamida muallif tomonidan tayyorlangan.

o‘shiga, bankning kapitallashuv darajasi, bankda resurs “uchun pullar” qiymati, hududlardagi raqobatchi banklar sonining ta’sirini uchta holatda 2025-2029-yillarga mo‘ljallangan prognoz ko‘rsatkichlari aniqlangan. Bunday ko‘rsatkichlar quyidagi jadvalda o‘z aksini topgan (11-jadval). Jadval ma’lumotlariga ko‘ra, 2-ssenariy eksponensial tahlilga asosan, aksiyadorlik tijorat banki “Agrobank”ni aktivlari qiymatii o‘shiga bankda kapitallashuv darajasi, bank resurs “uchun pullari” qiymati, hududlardagi raqobatchi banklar sonining ta’sir doirasi o‘rganilganda 2029-yilga kelib, “Agrobank”ning aktivlari qiymati 17 679 984 621 996,5 mlrd.so‘mga yetetishi kutilmoqda. 1-ssenariy chiziqli tahlil asosida, 2029-yilga kelib, “Agrobank”ning aktivlari qiymati 11 685 588 670 493,7 mlrd.so‘mga yetishi kutilmoqda. 3-ssenariy poliminomial tahlilga ko‘ra esa, 2028-yilga kelib, bankning aktivlari qiymati 13 099 080 101 498,2 mlrd.so‘mga yetishi kutilmoqda.

11-jadval

“Agrobank” aksiyadorlik tijorat bankida likvidlik aktivlari qiymati o‘shining yillar kesimidagi prognozi 2025-2029-yillar, mlrd. so‘m²⁸

Yillar	3-ssenariy polinomial $y = 0,2955x^2 + 0.5436x + 6,4205$ $R^2 = 0,950289$	1-ssenariy Chiziqli $y = 0.5436x + 6,4205$ $R^2 = 0,960183$	2-ssenariy Eksponensial $y = 2,7032e^{0,005x}$ $R^2 = 0,527$
2025-yil	8 968 348 171 251,6	8 968 348 171 251,6	8 728 198 497 229,2
2026-yil	10 175 487 835 102,1	9 712 721 069 465,5	9 199 521 216 079,6
2027-yil	11 545 108 497 706,9	10 237 208 007 216,7	9 912 384 820 857,1
2028-yil	13 099 080 101 498,2	10 790 017 239 606,4	12 678 246 583 736,2
2029-yil	14 862 216 283 159,9	11 685 588 670 493,7	17 679 984 621 996,5

Xulosa qilib aytish joizki, panel ma’lumotlari asosida uchta model tahlil qilinganda o‘zgarmas effekt modeli eng yaxshi hamda tijorat banklar likvidli aktivlari samaradorligiga ta’sir qiluvchi omillarning ta’sir darajasini baholay oluvchi model hisoblanadi. Mazkur modelning mustahkamligini aniqlash testi, ya’ni qoldiqlari o‘rtasidagi bog‘liqlik mavjud ekanligi modelni prognozlash imkoniyati mavjud ekanligidan dalolat beradi.

Filiallar kesimida aksiyadorlik tijorat “Agrobank”ning likvidli aktivlariga, mazkur banklarning kapitallashuvi darajasi, resurs “uchun pullari” qiymati, hududlardagi raqobatchi banklar sonining omillar ta’siri regression va korreliyatsion ekonometrik modellar asosida aniqlangan. Yig‘ma, o‘zgarmas va tasodifiy effekt modellaridan foydalangan holda AT “Agrobank”ning likvidli aktivlariga ta’sir etuvchi omillarning ta’sir darajasi baholangan. Bu modellar tahliliga asosan, o‘zgarmas effekt modeli eng optimal model hisoblanib, unga ko‘ra boshqa omillar o‘zgarmagan holda, banklarning kapitallashuvi darajasi 1 %ga o‘shishi, banklarning aktivlar hajmi 0.6369 %ga o‘shiga, resurs “uchun pullari” hajmining 1 %ga o‘shishi esa, banklarning aktivlar qiymati 0.3606 %ga jshishi olib keladi, biroq hududlardagi

²⁸Aksiyadorlik tijorat “Agrobank” ma’lumotlari asosida Eviews-12.0 dasturi yordamida muallif tomonidan tayyorlangan.

raqobatchi banklar sonining 1 %ga o'sishi banklarning aktivlar hajmi 0.8493 %ga kamayishiga olib keladi (boshqa omillar o'zgarmagan sharoitda).

ATB "Agrobank"ning likvidli aktivlari samaradorligiga ta'sir qiluvchi omil boshqa banklarning soni ko'payishi orqali ta'sir ko'rsatadi. Boshqa omillar o'zgarmagan holda yuqorida ko'rsatilgan omillarning birgalikda 1 %ga o'sishi, hududlarining investitsiya hajmi 0,1482 %ga o'sishini ta'minlaydi. ATB "Agrobank"ning likvidli aktivlari hajmiga ta'sir qiluvchi omillar ta'sirini baholash uchun o'zgarmas effekt modelidan foydalanish maqsadga muvofiq. Ekonometrik natijasi xulosasidan kelib chiqqan holda "Agrobank"ning likvidli aktivlari ko'payishiga quyidagilarni amalga oshirish maqsadga muvofiq.

Birinchiidan, tadqiqotda bank likvidli aktivlari ko'payishida bank filliallarining kapitallashuv darajisini oshirish lozim, bank kapitallashuvi oshib borishi bankning likvidli aktivlari oshishiga olib keladi.

Ikkinchiidan, "Agrobank"ning likvidli aktivlarini oshirishda hududlardagi raqobatchi banklar soni o'sishini inobatga olish lozim. Bu esa, o'z navbatida, hududlardagi banklar soni oshishini "Agrobank" hududlardagi filiallari aktivlarining kamayishiga olib kelishini ko'rsatdi. Shuni inobatga olgan holda "Agrobank" filliallardagi bank kreditlarning o'rtacha foizini paysaytirish lozim. Natijada, filliallardagi likvidli aktivlar hajmi ortishiga hamda samaradorligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Xulosa qilib ta'kidlash joizki, "Agrobank"ni aktivlari qiymati o'sishini ta'minlovchi asosiy ko'rsatkich bankning kapitallashuvi darajasi, bankda resurs "uchun pullari" qiymati, hududlardagi raqobatchi banklar soni o'zgarishi hisoblanadi. Aksiyadorlik tijorat banki "Agrobank"ni aktivlari qiymati o'sishiga banklardagi resurslar hajmi va bankning kapitalashuv darajasi ijobiy ta'sir qiladi. Biroq, hududlardagi banklar soni ko'payishi salbiy ta'sir qiladi. Shundan kelib chiqqan holda, bankda o'z resursalari ko'paytirish borasida kompleks chora-tadbirlar ishlab chiqish lozim.

XULOSA

Tadqiqot doirasida tijorat banklarining likvidligini tartibga solish bilan bog'liq bir qator dolzarb masalalar o'rganilgan:

1. Tijorat banklari tomonidan yevroobligatsiyalar emissiyasini joriy etish orqali tashqi moliyaviy resurslarni jalb qilish mexanizmini shakllantirish va likvidlilik uzluksizligini ta'minlashni tartibga soluvchi moliyaviy model asosida likvid aktivlar ulushini kamida 18-20 % darajasida saqlab turish hamda normativ likvidlilik ko'rsatkichlarini 1,2 barobarga yaxshilash taklif etilgan. Mazkur yondashuvda yevroobligatsiyalar emissiyasi banklar uchun nafaqat qo'shimcha moliyalashtirish vositasi, balki valyuta xatarlarini kamaytirish, likvidlilik uzluksizligini ta'minlash va resurs bazasini diversifikatsiya qilishning samarali yo'li sifatida baholangan. "Agrobank" ATB misolida mazkur mexanizm amaliyotga joriy etilib, London va Vena fond birjalarida yevroobligatsiyalar joylashtirilgan.

2. Tadqiqotda tijorat banklari resurslarining asosiy qismini qisqa muddatli daromad keltiruvchi aktivlarga yo'naltirish, investitsion loyihalarni moliyalashtirishda uzoq muddatga jalb qilingan depozitlar va xorijiy kredit liniyalar

mablag'lari hisobidan amalga oshirish hamda bir yildan ortiq muddatli majburiyatlar ulushini 70 %gacha yetkazish orqali likvidlikni ta'minlash taklifidan foydalanilgan. Mazkur taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida bankning 2025-yil 1-yanvar holatiga qisqa muddatga ajratilgan kreditlar qoldig'i 14,5 trln. so'mni tashkil etib, o'tgan yilga (10,5 trln. so'm) nisbatan 4,0 trln. so'mga, bankning bir yildan ortiq muddatli majburiyatlar ulushi 2025-yil 1-yanvar holatiga o'tgan yilning shu davriga nisbatan 9,3 trln. so'mga yoki 53,41 foizga ko'tarilgan. Taklif etilgan bunday strategiya, bank balansidagi muddatlar bo'yicha muvozanatni ta'minlab, likvidlik xavfini kamaytirish va resurslardan maksimal daromad olish imkonini beradi.

3. Bank ish kuni davomida real vaqt rejimida pul oqimlari monitoringi, normativ likvidlilik darajasiga yaqinlashish signali va avtomatlashgan korrektiv harakatlar algoritmini o'z ichiga olgan likvidlilikni boshqarish tartibini joriy etish orqali tezkor likvidlik koeffitsiyentining 1,0 dan pastga tushish xavfini 70 %gacha kamaytirish taklif etilgan. Mazkur taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida banklarda kun davomida yuzaga keluvchi likvidlik tafovutlarini tezkor aniqlash, ularni samarali tarzda boshqarish va moliyaviy barqarorlikni ta'minlashga xizmat qiladi.

4. Tijorat banklarining likvidlik aktivlariga ta'sir qiluvchi omillarni o'zgarmas effekt modeli orqali likvidli aktivlar o'sishining 2029-yilgacha prognoz ko'rsatkichlari ishlab chiqilgan. Mazkur taklif natijasida "Agrobank" ATBning likvidli aktivlari samaradorligiga ta'sir qiluvchi omillar aniqlangan, shuningdek, aktivlar hajmiga ta'sir qiluvchi omillarni baholash imkoniyati yaratilgan. Ekonometrik tahlil natijalariga ko'ra, bank likvidligi bir vaqtning o'zida bir nechta muhim omillarga sezilarli darajada bog'liq. Bank kapitali, jalb qilingan resurslar hajmi, raqobat darajasi, depozitlar tarkibi, bank filiallari ko'payishi singari omillar banklarning likvid aktivlari hajmiga muhim ta'sir ko'rsatadi. Panel va solishtirma modellar asosida olib borilgan tadqiqot natijalarga ko'ra, bank kapitalizatsiyasi o'sishi, ya'ni bank kapitali hajmi ortishi likvid aktivlar hajmi ko'payishiga sabab bo'lishi aniqlangan. Xususan, bank kapitalining 1 %ga o'sishi likvid aktivlar hajmining taxminan 0.6–0.7 %ga o'sishiga olib kelishi mumkin.

5. Resurslar narxi oshib borayotgan sharoitda banklar likvid aktivlar ulushini biroz oshirib, himoya buferi sifatida zaxira yaratishga intiladi. Shu bilan birga, bir hududda faoliyat yuritayotgan banklar soni ortishi ayrim banklarning likvid aktivlar hajmi kamaytirishiga olib kelishi mumkin. Ya'ni raqobat kuchayishi sharoitida ayrim banklarda o'z aktiv tarkibini qayta ko'rib chiqishga to'g'ri keladi. Bunday natijalar bank likvidligini belgilovchi asosiy omillar sifatida kapital yetarliligi va bozor muhitining muhim ahamiyat kasb etishini tasdiqlaydi.

6. Tadqiqot davomida bir nechta statistik modellar sinovdan o'tkazilgan va ularning orasida fixed effects panel modeli (fikslangan effektlar panel modeli) eng maqbul model sifatida tanlangan. Aynan bu model likvidlikka ta'sir ko'rsatayotgan omillarning aniq o'lchovlarini belgilash va baholashda eng ishonchli natijalarni bergan. Shuningdek, 2025–2029-yillar oralig'ida banklarda likvid aktivlar hajmi bo'yicha prognoz amalga oshirilgan. Model asosida tuzilgan prognozlarga ko'ra, hozirgi tendensiyalar saqlanib qolsa, kelgusi yillarda banklardagi likvid aktivlar barqaror ravishda o'sishda davom etadi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.03/10.12.2019.I.16.01 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ
УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ ТАШКЕНТСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ
ЭКОНОМИЧЕСКОМ УНИВЕРСИТЕТЕ**

**ТАШКЕНТСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ
УНИВЕРСИТЕТ**

СУЛАЙМАНОВ САМАНДАРБОЙ АДХАМБЕК УГЛИ

**СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ РЕГУЛИРОВАНИЯ ЛИКВИДНОСТИ
КОММЕРЧЕСКИХ БАНКОВ**

08.00.07 – Финансы, денежное обращение и кредит

АВТОРЕФЕРАТ

на соискание ученой степени доктора философии (PhD) по экономическим наукам

Ташкент – 2025

Тема диссертации на соискание степени доктора философии (PhD) зарегистрирована Высшей аттестационной комиссией под № В2025.2.PhD/Iqt5452.

Диссертация выполнена в Ташкентском государственном экономическом университете.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский и английский (резюме)) размещён на веб-сайте Научного совета (www.tsue.uz) и на Информационно-образовательном портале «ZiyoNet» (www.ziynet.uz).

Научный руководитель:

Ахмед Мохамед Азиз Исмаил
доктор технических наук

Официальные оппоненты:

Ташмурадова Бувсара Эгамовна
доктор экономических наук, профессор

Нурмухаммедов Абдижаббар Юнусович
доктор философии (PhD) по экономическим наукам,
доцент

Ведущая организация:

Университет Альфрагануса

Защита диссертации состоится «23» 10 2025 года в 16⁰⁰ часов на заседании Научного совета DSc.03/10.12.2019.I.16.01 по присуждению ученых степеней при Ташкентском государственном экономический университете. (Адрес: 100066, г.Ташкент, ул. Ислама Каримова, 49. Тел.: (99871) 239-28-72; факс: (99871) 239-43-51; e-mail: info@tsue.uz)

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Ташкентском государственного экономического университета (зарегистрирован под номером 1780). Адрес: 100066, г.Ташкент, ул. . Ислама Каримова, 49. Тел.: (99871) 239-28-72; факс: (99871) 239-43-51; e-mail: info@tsue.uz

Автореферат диссертации разослан «10» 10 2025 года.

(реестр протокола рассылки № 86 от «10» 10 2025 года.).



С.У. Мехмонов
Председатель научного совета по присуждению ученых степеней, доктор экономических наук, профессор

У.В. Гафуров
Учёный секретарь научного совета по присуждению ученых степеней, доктор экономических наук, профессор

С.К. Худойеулов
Заместитель председателя научного семинара при научном совете по присуждению ученых степеней, доктор экономических наук, профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. В мировой экономике возрастает значение регулирования ликвидности коммерческих банков в обеспечении стабильности финансовой системы, усилении эффективности диалога между банками и повышении действенности механизмов денежно-кредитной политики. Поддержание ликвидности на приемлемом уровне позволяет своевременно выполнять обязательства банка, гарантирует бесперебойное выполнение функции финансового посредничества и служит смягчению макроэкономических рисков. В частности, согласно анализу, проведенному Международным валютным фондом, «недостаток эффективного управления ликвидностью привел к углублению финансового кризиса 2008 года, в связи с чем в рамках стандартов Базеля III были внедрены такие индикаторы, как «Ratio Liquidity Coverage (LCR)» и «Net Stable Funding Ratio (NSFR)», сформированы международные критерии обеспечения долгосрочной и краткосрочной ликвидности»¹. Из этого видно, что необходимость активного функционирования высокоразвитого рынка ценных бумаг, денежного рынка, а также кредитных и депозитных операций между банками имеет важное значение. Именно эти факторы, то есть глубина и ликвидность финансовых рынков, играют важную роль в процессе регулирования ликвидности коммерческих банков.

В мировой банковской практике проводится ряд научных исследований, направленных на совершенствование требований, норм и принципов регулирования ликвидности коммерческих банков. В этих исследованиях основными направлениями научных исследований являются вопросы снижения риска, связанного с ликвидностью коммерческих банков, регулирования и обеспечения ликвидности, неожиданного выполнения требований при регулировании ликвидности коммерческих банков, обеспечения высоколиквидными и стабильными средствами, обеспечения баланса между рисковыми активами и срочными средствами банков, оперативного удовлетворения спроса банков на ликвидные средства, использования рыночных инструментов при регулировании ликвидности.

В Узбекистане реализуется ряд институциональных и регулятивных мер, направленных на усиление макроэкономической политики в области регулирования ликвидности коммерческих банков, обеспечение стабильности банковской системы и повышение эффективности финансового посредничества. В частности, на основе «Нормативных руководств по управлению и контролю ликвидности», принятых Центральным банком, все коммерческие банки обязаны рассчитывать такие показатели, как «коэффициент оперативной ликвидности», «ежедневный минимальный кассовый резерв» и «индекс долгосрочной ликвидности». Вместе с тем, в целях стимулирования перераспределения ликвидности между банками

¹ International Monetary Fund, Liquidity Risk Management and Supervision, IMF Working Paper No. 13/3, 2013. URL: <https://www.imf.org/en/Publications/WP/Issues/2016/12/31/Liquidity-Risk-Management-and-Supervision-40143>

активно внедряются инструменты денежного рынка Центрального банка (репо, своп и нераспределенные депозиты). Такие меры являются важной основой для обеспечения устойчивости банков к рискам ликвидности и последовательного продолжения кредитной деятельности². Реформы, проводимые для обеспечения финансовой устойчивости коммерческих банков, удовлетворения спроса на кредиты населения и реального сектора, а также своевременного выполнения обязательств перед клиентами, в том числе в Положении правления Центрального банка Республики Узбекистан «О порядке выделения кредитов Центральным банком Республики Узбекистан для оказания экстренной поддержки ликвидности коммерческих банков», вступившем в силу 14 марта 2025 года, определены ряд задач. Однако основную долю депозитов в балансе банка составляют бессрочные депозиты, высоколиквидные активы правительства и Центрального банка практически не сформированы в структуре активов, научное обоснование и разработка научных рекомендаций о практической неэффективности депозитной, кредитной и процентной политики банка является актуальной задачей для банковской системы республики.

